

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI
TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MINTAQAVIY MARKAZI**

**“ZAMONAVIY SOTSIOLOGIK NAZARIYA VA
METODOLOGIYALAR
MODULI BO‘YICHA**

O‘QUV USLUBIY MAJMUA

Toshkent - 2022

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: J.Xolbekov - sotsiologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchi: N.S. Aliqoriyev – O‘zbekiston Milliy universiteti professori, i.f.d.

O‘quv -uslubiy majmua O‘zbekiston milliy universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2021 yil ____dekabrdagi № ____sonli baènnomasi)

МУНДАРИЖА

I. ИШЧИ ДАСТУР	4
II. МОДУЛНИ ЎҚИТИШДА ФОЙДАЛАНИЛАДИГАН ИНТЕРФАОЛ ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИ.....	14
III. НАЗАРИЙ МАЪЛУМОТЛАР	21
IV. АМАЛИЙ МАШГУЛОТ МАТЕРИАЛЛАРИ.....	62
V. ГЛОССАРИЙ	62
VI. АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ.....	64

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdan tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 fevraldagagi “Sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5667-sonli Farmonida jamiyat hayotining fundamental sohalaridagi mavjud vaziyatni tahlil qilish, ilg‘or xorijiy hamda mahalliy metodologik tadqiqotlar asosida ilmiy tvsiyalar ishlab chiqish, bunda kompleks sotsiologik tadqiqotlarning sifat jihatdan mutlaqo yangi innovatsion uslub va vositalarini shakllantirish vazifalari belgilangan.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish

chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli Qarorida oliv o‘quv yurtidan keyingi ta’limga qo‘yilgan talablar, shuningdek xalqaro standartlarni hisobga olgan holda oliv ta’lim yurtlari professoro‘qituvchilarining malakasini oshirish qoidalari belgilangan.

Yuqorida keltirilgan muhim meyoriy hujjatlarda qayd etilgan vazifalar bugungi kunda sotsiologiya fanining dolzarb vazifalariga ham oid bo‘lib, jamiyat rivojining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va intellektual omillari, ijtimoiy tizimlar tuzilmasi, sotsial o‘zgarishlar va jarayonlarni ijtimoiy fanlar, xususan sotsiologik ta’limotlar va ilg‘or innovatsion tajribalar asosida tadqiq etishni talab etadi. Bu esa o‘z navbatida ushbu fan tarmog‘ining nazariyasi, tarixi, shuningdek tarmoqlar yo‘nalishidagi sotsiologik tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojni yanada orttirmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizdagи bir qator OTM da sotsiologiya predmetining o‘qitilayotganligi, bir necha oliv o‘quv yurtlarida sotsiologiya bo‘limlarining faoliyat olib borayotganligidan kelib chiqsak, masalaning muhimligi yanada oydinlashadi. Zero, sotsiologiya bo‘yicha ilmiy-akademik va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlanishi mavjud ijtimoiy muammolarni ilmiy asoslangan tavsiyalar asosida o‘rganish, prognozlash, rejalshtirish va loyihalashtirish imkoniyatlarini oshiradi. Shu ma’noda yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlar bazasini oshirish imkoniyatlarini yuzaga keltirmoqda.

Shu ma’noda sotsiologik ta’lim tizimi samaradorligini oshirish, mazkur sohada faoliyat yuritayotgan pedagoglarni zamonaviy bilim hamda amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, zamonaviy xorijiy tajribalarni o‘rganish va ta’lim amaliyotiga tadbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. “Zamonaviy sotsiologik nazariya va metodologiyalar” moduli aynan mana shu yo‘nalishdagi masalalarini hal etishga qaratilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda oliv ta’lim sifatini oshirish, unga innovatsion yondashuvni joriy etish, o‘quv jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish hamda xalqaro standartlar talablariga javob beradigan

malakali kadrlar tayyorlash, qaytatayyorlash va malakasini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘z navbatida ijtimoiy fanlar, xususan oliy ta’lim tizimida sotsiologiya fanlarini o‘qitishni tubdan yaxshilash alohida yondashuvni talab etadi.

Zamonaviy sotsiologik nazariya va metodologiyalar kursi oliy ta’limning bakalavriat yo‘nalishida o‘qitiladigan gumanitar fanlar turkumiga kiradi va “Sotsiologiya” fani tarkibida o‘qitiladi. Ayniqsa, zamonaviy nazariy sotsiologiya muammolarini tadqiq etishga sezilarli hissa qo‘shtan yirik sotsiolog olimlar, ularning metodologik yondashuvlarini o‘rganish muhimdir. Aynan sotsiologiya fanining ular tomonidan tadqiq qilingan muhim muammolari, xususan, zamonaviy jamiyatning stratifikatsiya muammolari, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, sotsial harakat va o‘zgarishlar tendensiyalari, qolaversa umuman zamonaviy sotsiologik bilim, zamonaviy sotsiologiyaning muammolar makoni va dinamikasi, globallashuv davrida axborotlashgan jamiyatning yangilangan nazariyasini bayon etuvchi nazariyalar va metodologiyani o‘qitish zaruriyati oshmoqda. Bu ayniqsa o‘zining rivojida yangi davrni boshdan kechirayotgan O‘zbekiston jamiyati uchun ahamiyatlidir.

“Zamonaviy sotsiologik nazariya va metodologiyalar” moduli bo‘yicha dasturda fanning global muammolari, bugungi kunda ijtimoiy fanlarda erishilgan eng so‘ngi ilmiy ma’lumot asosida jamiyatning bugungi kundagi holatini to‘laroq aks ettiruvchi metodologik ta’limotlarga alohida o‘rin ajratilgan, shuningdek unda tizimlilik va tarixiylik yondashuvlari bazasida muammoni nafaqat nazariy tahlil etish nuqtai nazaridan, balki faktik materiallarga tayangan holda bayon qilishga e’tibor qaratilgandir.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: pedagog kadrlarni sotsiologiya fanining klassik, noklassik va neoklassik paradigmalari bilan bir qatorda harakatdagi jamiyat modellari haqidagi nazariy-metodologik bilimlarini yanada kengaytirish va mustahkamlash,

sotsiologiya fani bo‘yicha nazariy va empirik qarashlar uyg‘unligi asosida o‘qitishning zamonaviy usullaridan samarali foydalanishga doir amaliy tavsiyalarni berishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- “Sotsiologiya” yo‘nalishida pedagog kadrlarning nazariy va kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish;
- pedagoglarning tizimli fikrash va ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- sotsiologiyani o‘qitishning muammoli va innovatsion texnologiyalari tajribalarini o‘zlashtirishga yordamlashish;
- “Sotsiologiya” yo‘nalishida o‘z ustida ishlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini amaliyat va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiylariga qo‘yiladigan talablar

Modulni o‘zlashtirish yakunida tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiylarga ega bo‘lishlari lozim:

Tinglovchi:

- jamiyatning sotsial tizim (sotsium) sifatidagi shakllanishi, funksional mavjudligi va o‘zgarishi meyorlarini;
- jamiyatning sotsial strukturasi va sotsial tizimlarini;
- ijtimoiy meyorlarning o‘zgarish tendensiyalarini;
- sotsial makonda urbanizatsiya va axborotlashgan jamiyat modellari;
- zamonaviy sotsiologik tadqiqotlar metodikasi va texnikasini;
- “sotsiologik tadqiqot” tushunchasi, sotsiologik bilish tizimida uning funksiyalarini;

- taraqqiyot tizimida ijtimoiy xizmat: nazariy-metodologik asoslarini;
- ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni takomillashtirishning konseptual jihatlarini;
- ijtimoiy xizmat konseptining ijtimoiy tavsifini ***bilishi*** kerak.

Tinglovchi:

- AQSH, Yevropa, Kanada, Rossiya, Xitoy, Yaponiya va Markaziy Osiyo sotsiologiya fani rivojidagi ustuvor masalalar va zamonaviy nazariy metodologik konsepsiyalarini tahlil etish;
- sotsiologik tadqiqot jarayoni bilan bog‘liq asosiy tushunchalar, sotsiologik tadqiqot natijalarini amaliyatga qo‘llashga doir, shuningdek tadqiqot metodologiyasi va metodini aniqlash, ularning o‘xshashligi va farqli jihatlarini ajrata olish;
- ijtimoiy munosabatlarning sotsial jihatlarini tadbiq etish;
- internet kibermakonida muvozanatsizlikni muvozanatlash;
- internet kibermakonida axborot olish madaniyati, uning asosiy vosita va turlarini sotsiologik tahlil qilish ***ko‘nikmalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- tashkilot, muassasa va idoralarda sotsiologik tadqiq qilingan statistik ma’lumotlardan ilmiy-pedagogik faoliyatda foydalanish;
- sotsiologiya fanida ijtimoiy meyor, xulq-atvor meyorlari va deviantlik holatlarining namoyon bo‘lishiga doir, migratsiya jarayonlarining kechishi, holati va istiqboliga doir prognostik tasavvur qila olish;
- ma’lumotlar yig‘ish metodlarini umumiylashtirishda turlari to‘g‘risida, shuningdek hujjatlar, birlamchi ma’lumotlar tahlilini amalga oshira olish;
- inson manfaatlarini ta’minlashda ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning ahamiyati, ijtimoiy xizmatning madaniy jihatlari va o‘ziga xosliklari, ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning institusionallashuvi, ijtimoiy xizmat paradigmalari va ulardan samarali foydalanish;

- ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishslash va tahlil qilishning yangi usullarini optimallashtirish **malakalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- zamonaviy sotsiologiyaning maxsus va tarmoq yo'nalishlari asosiy kategoriyalari, nazariy va amaliy sohalarda erishgan yutuqlari, muammolari va ularning rivojlanish istiqbollarini belgilash va tahlil qilish;
- sotsiologik tadqiqot natijalaridan davlat va jamiyat manfaati rivojida foydalanish, sotsiologning axloq Kodeksidan kelib chiqib ma'lumotlarni ijobiy maqsadlarga yo'naltirib loyihalash;
- zamonaviy sotsiologiya fanining nazariy va amaliy yutuqlarini ilmiy ijodkorlikka yo'naltirib loyihalash;
- ijtimoiy jarayonlarni modellashtirish va bashorat qilish;
- ijtimoiy sohada qo'llaniladigan ilmiy yondashuvlarni ijtimoiy hayotga tadbiq etish;
- axborotlashgan jamiyat to'g'risida ilgari surilgan konseptual g'oyalar va ularning istiqboli to'g'risidagi qarashlarni tahlil eta olish;
- sotsiologiya fanidagi dolzarb muammolarni aniqlash va yechimini topish;
- nazariy-metodologik bilimlarni qo'llagan holda davlat buyurtmasiga oid muammoviy masalalarini yechishga oid tadqiqotlarni bajarish **kompetentsiyalariga** ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv

va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Zamonaviy sotsiologik nazariya va metodologiyalar” moduli o‘quv rejadagi “Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish” va mutaxassislik fanlari blokidagi barcha o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan.

Modulning oliv ta’limdagি o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar sotsiologiya fanining nazariy va metodologik asoslarini, shuningdek, jamiyat rivoji va o‘zgarishlari borasidagi eng yangi nazariy g‘oyalari va amaliy natijalarga asoslangan xulosalar chiqarish, sotsiologik tadqiqotlar ma’lumotlaridan amaliy foydalanish metodlarini qo’llash bo‘yicha kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

“Zamonaviy sotsiologik nazariya va metodologiyalar” moduli bo‘yicha soatlar taqsimoti

4 №	Modul mavzularи	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat					
		Хаммаси	Auditoriya o‘quv yuklamasi			Мустакил таълим	
			Жами	jumladan			
Жами	Назарий	Амалий	Кўчма				
1.	Zamonaviy sotsiologiyada nazariya va metodologiya muammolari: tarixiylik va tizimlilik	4	4	2	2		
2.	Zamonaviy sotsiologik nazariyalardagi asosiy tushunchalar: sotsium, sotsial struktura; sotsial harakat; sotsial aloqalar (E. Giddens talqini)	4	4	2	2	2	

3.	Jamiyat sotsiologiya predmeti sifatida (sotsiologiyada jamiyat tahlili (P.Shtompka talqini)	4	4	2	2		
4.	Sotsiologiyada empirik tadqiqot metodlari	4	4	2	2	2	
5.	Sotsiologik nazariya va metodologiyalar istiqbollari	4	4	2	2		
	Jami: 24 soat	24	24	10	10	4	

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Zamonaviy sotsiologiyada nazariya va metodologiya muammolari: tarixiylik va tizimlilik (2-soat).

1. Sotsiologiyada paradigmalar almashinushi. Sotsiologiya rivojining dastlabki bosqichidan (O.Kont, E.Dyurkgeym, K.Marks, M.Veber) zamonaviy sotsiologiyaga (E.Giddens, P.Shtompka va b.).
2. Sotsiologiyada “Inson jamiyati tarixi” tushunchasi: asosiy qarashlar
3. *Sotsium: tuzilishi va dinamikasi.*

2-mavzu: Zamonaviy sotsiologik nazariyalardagi asosiy tushunchalar: sotsium, sotsial struktura; sotsial harakat; sotsial aloqalar (E.Giddens talqini) (2-soat).

1. Sotsial struktura va uning tarkibiy elementlari (sotsial institutlar, hokimiyat strukturasi va b.).
2. Sotsial harakat va uning asosiy shakllari (urbanizatsiya, sotsial mobillik, sotsial harakatlar (revolyusiyalar), sotsial o‘zgarishlar, globalizatsiya).
3. *Sotsial aloqalar (shaxs va sotsializatsiya, madaniyat va jamiyat, sotsial o‘zaro harakatlar va kundalik hayot, konformlik va deviantlik, gender va oila) sotsiologyaning muhim tushunchasi sifatida.*

4. *Konflikt va konsensus jamiyat mavjudligining realligi sifatida. 3-mavzu:*

Jamiyat sotsiologiya predmeti sifatida (sotsiologiyada jamiyat tahlili (P.Shtompka talqini) (2-soat).

1. Inson faolligi sotsial kontekst sifatida. Sotsial birliklar.
2. Madaniyat, qadriyatlar-normativ, globalizatsiyaizim, ijtimoiy fikr – jamiyat hayotining determinantlari sifatida.
3. Sotsial stratifikatsiya E.Giddens va P.Shtompka talqinida: qiyosiy tahlil.
4. *Jamiyat funksionalligi (sotsializatsiya, sotsial nazorat va institusionalizatsiya).*
5. *Sotsial o'zgarishlar (sotsial vaqt, sotsial inqilob, globalizatsiya).*

4-mavzu: Sotsiologiyada tadqiqot metodlari (2-soat).

1. Sotsiologiyada tadqiqot strategiyasi va umumiy metodologiya muammosi.
2. Asosiy tadqiqot metodlari (dala tadqiqotlari, so'rovlар, tanlash, hujjatli tadqiqot, eksperimetlar).
3. *Tadqiqotning boshqa turlari: intervyu, kundaliklar, intervyu, suhbat tahlili va b.*
4. *Tadqiqot natijalari va ularning talqini.*

5-mavzu: Sotsiologik nazariya va metodologiyalar istiqbollari (2-soat).

1. Sotsial faoliyat murakkabligi turli nazariy yondashuvlar mavjudligining tabiiyligi.
2. Zamonaviy sotsiologiyaning asosiy nazariy yondashuvlari: funksionalizm, strukturalizm, simvolik interaksionizm va b.
3. *Dunyoning yangi manzarasi va uni izohlashda sotsiologiyaning o'rni.*

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot. Zamonaviy sotsiologiyada nazariya va metodologiya muammolari: tarixiylik va tizimlilik (2-soat).

2-amaliy mashg‘ulot. Zamonaviy sotsiologik nazariyalardagi asosiy tushunchalar: sotsium, sotsial struktura; sotsial harakat; sotsial aloqalar (E.Giddens talqini) (2-soat).

3-amaliy mashg‘ulot. Jamiyat sotsiologiya predmeti sifatida (sotsiologiyada jamiyat tahlili (P.Shtompka talqini) (2-soat).

4-amaliy mashg‘ulot. Sotsiologiyada empirik tadqiqotlar metodlari (2soat).

5-mashg‘ulot. Sotsiologik nazariya va metodologiyalar istiqbollari (2soat).

KO‘CHMA MASHG‘ULOT MAZMUNI

Ko‘chma mashg‘ulot. Zamonaviy sotsiologik nazariyalardagi asosiy tushunchalar: sotsium, sotsial struktura; sotsial harakat; sotsial aloqalar (E. Giddens talqini). Sotsiologiyada empirik tadqiqot metodlari (4 soat). (O‘zMU, “Sotsiologiya” kafedrasi, “Ishtimoiy fikr” Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi).

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalilanadi: - ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (keyslar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

1. “Keys-stadi” uslubi (Case study method).

«Case study» - inglizcha so‘zlar birikmasi bo‘lib («case» – aniq vaziyat yoki hodisa, «study» – o‘rganmoq), uning ma’nosи aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishga qaratilgan uslubni (metodni) anglatadi. Mazkur uslub dastlab 1921 yilda Garvard universitetida iqtisodiy boshqaruv fanini o‘qitishda qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborot yoki aniq voqeahodisalardan vaziyat sifatida tahlil maqsadida foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagi punktlarni qamrab oladi: Kim? (Who?), Qachon? (When?), Qayerda? (Where?), Nima uchun? (Why?), Qanday?/ Qanaqa? (How?), Nima? (What?).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish Bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<input type="checkbox"/> yakka tartibdagи audio-vizual ish; <input type="checkbox"/> keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); <input type="checkbox"/> axborotni umumlashtirish; <input type="checkbox"/> axborot tahlili; <input type="checkbox"/> muammolarni aniqlash

2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<input type="checkbox"/> individual va guruhda ishlash; <input type="checkbox"/> muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; <input type="checkbox"/> asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<input type="checkbox"/> individual va guruhda ishlash; <input type="checkbox"/> muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; <input type="checkbox"/> har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; <input type="checkbox"/> muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<input type="checkbox"/> yakka va guruhda ishlash; <input type="checkbox"/> muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; <input type="checkbox"/> ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; <input type="checkbox"/> yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys: Muammo sifatida turli xil jamiyatdagi ijtimoiy hodisalar na’munalari olinadi. Bunda turli jadvallar orqali qiyosiy materiallar tayyorlanadi. Ijtimoiy tizim va jarayonlarning davriy o‘zgarishi tendensiyalari aniqlanadi, buning sabablarining umumiy jihatlari o‘rganiladi.

Keysni bajarish bosqchilarini va topshiriqlari:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Dasturni to‘g‘ri ishlashi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

2. “Assessment” usuli.

Usulning maqsadi: mazkur usul ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali tinglovchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Usulni amalga oshirish tartibi: “Assessment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida tinglovchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, shuningdek, seminar va amaliy mashg‘ulotlarda mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, xususan, o‘zini-o‘zi baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsija etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assessment ga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Izoh: Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

3. “Tushunchalar tahlili” usuli:

Usulning maqsadi: mazkur usul tinglovchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

- Usulni amalga oshirish tartibi:
- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
 - tinglovchilarga mavzuga hamda bobga tegishli so‘zlar, iboralar va tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruh tartibida);
 - tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
 - belgilangan vaqt yakuniga yetgach, o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
 - har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Na’muna: “Ma’ruzadagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha Ma’lumot
--------------	---	------------------------

<i>Sotsium</i>	<i>Insonlarning o‘z hududiy va ijtimoiy identikligini his etishi, ma’lum hududda yashashi, yagona siyosiy hokimiyat tizimiga bo‘ysunishi bilan ifodalananadigan tushuncha</i>	
<i>Sotsial struktura</i>	<i>Jamiyatning tabaqalashuvi va ijtimoiy tuzilishi, uning milliy-etnik va xududiy birliklari, shuningdek ijtimoiy</i>	
	<i>guruqlar, siyosiy tashkilotlar, shuningdek ijtimoiy institutlar hamda o‘zgarishlarni o‘z ichiga oluvchi kompleks tushuncha</i>	
<i>Sotsial transformatsiya</i>	<i>Jamiyatda va sotsial tizimlardagi, uning bazaviy tuzilmalaridagi o‘zgarishlar jarayonlarini ifodalovchi tushuncha</i>	
<i>Sotsial harakat</i>	<i>Ijtimoiy o‘zgarishlarni sodir etish bo‘yicha insonlarning yirik guruqlari va birliklarining faoliyatini anglatuvchi tushuncha</i>	
<i>Sotsial aloqalar</i>	<i>Jamiyatda inson faolligi, shuningdek uning xulq-atvori va xatti-harakatidan tortib ijtimoiy harakatlar, o‘zaro munosabatlar, ijtimoiy tashkilotlararo bog‘liqliklar hamda jamiyat ijtimoiy tuzlmasidagi ommaviy va sotsial aloqalargacha bo‘lgan keng ko‘lamli jarayonlarni ifodalovchi tushuncha</i>	

<i>Sotsial stratifikatsiya</i>	<i>Jamiyat hayotida insonlarning ijtimoiy jihatdan tabaqlashuvi, ularning daromad, moddiy ne'matlar, boylik va hokimiyatga nisbatan turli mavqeni egallashlari hamda turli xil hayot darajasi, sifati va tarziga ega bo'lishlarini ifodalovchi tushuncha</i>	
<i>Sotsial guruhlar</i>	<i>Individlarning kichik assotsiatsiyalardan tortib yirik tashkilotlar va jamiyat darajasigacha bo'lgan ulkan jabhalarda bir-birlari bilan tizimli tarzda o'zaro</i>	
	<i>xatti-harakatlar va munosabatlarda bo'luvchi guruhlarini anglatuvchi tushuncha</i>	
<i>Sotsial institutlar</i>	<i>U yoki bu jamiyat a'zolarining katta qismi amalga oshiruvchi, mavjud meyorlar va qadriyatlar, shuningdek sanksiyalar va ta'qiqlar, xulq-atvor va xattiharakatlarning uslublarini o'ziga qamrab oluvchi va shu ma'noda jamiyat asosini tashkil etuvchi faoliyat turlarini ifodalovchi tushuncha</i>	

«BBB» texnikasi

“BBB” jadvalini tuzish qoidalari bilan tanishtiradi. Yakka tartibda (juftlikda) jadval tuziladi



<i>Nº</i>	<i>Mavzu savollari</i>	<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni xohlaman</i>	<i>Bilib oldim</i>
1	2	3	4	5
1.	Jamiyat sotsium sifatida			
2.	Jamiyatning ijtimoiy strukturasi			
3.	Ijtimoiy jarayonlar transformatsiyasi			
4.	Ijtimoiy institutlar rivoji			
5.	Jamiyat hayoti sohalari tushunchasi			

«BBB» texnikasining qoidasi

1. “Insert” texnikasidan foydalanylган holda matnni o‘qib chiqing.
2. Olingan ma’lumotlarni individual sohalarga ajrating. Qalam bilan qo‘yilgan belgilar asosida «BBB» jadvalini to‘ldiring.

“Insert” texnikasi qoidasi:

1. Matnni o‘qib chiqing.
2. Olingan ma’lumotlarni diqqat bilan o‘rganib, sohalarga ajrating. Qalam bilan har bir qatorga quyidagi belgilarni qo‘yib chiqing:

V – bilaman;
+ – yangi ma’lumot;
– – bilganlarimga zid;
? – meni o‘ylantiradi

«BBB» jadvali

III. NAZARIY MA’LUMOTLAR

1-mavzu: ZAMONAVIY SOTSIOLOGIYADA NAZARIYA VA METODOLOGIYA MUAMMOLARI: TARIXIYLIK VA TIZIMLILIK

Reja:

1. *Sotsiologiyada paradigmalar almashinuvi*
2. *Sotsiologiyada “Inson jamiyati tarixi” tushunchasi*
3. *Sotsium: tuzilishi va dinamikasi*

Tayanch iboralar: *Fanlar tasnifi, ijtimoiy fanlar, sotsiologiya, paradigma, inson, jamiyat, ijtimoiy tuzum, insoniyat tarixi*

1.1. Ma’lumki, insoniyat tarixida fanlar atrof borliqni (insonni, tabiatni, jamiyatni, inson tafakkurini) bilish va u olingan bilimlardan foydalanish jarayonida muttasil rivojlanib va murakkab tizimlar sifatida takomillashib borgan. Umuman

olganda, obyektiv, ya’ni inson tafakkuridan tashqarida mavjud bo‘lgan reallikning uch asosiy sohasi mavjud, bular: a) tabiat, b) jamiyat va c) ruhiy hodisalar. Shunga mos tarzda fanlarni shartli ravishda va nisbiy ma’noda ***tabiiy*** (fizika, kimyo, biologiya va h.k.), ***ijtimoiy*** (sotsiologiya, iqtisod, tarix va h.k.) va ***gumanitar*** (psixologiya, etika, lingvistika va h.k.) fanlarga ajratish mumkin. XX asrning 50 – yillaridan boshlab, xususan kosmanavtikaning tez rivojlanishi, ayniqsa Yuriy Gagarinning 1961 yildagi kosmosga parvozidan boshlangan ilmiy- texnik inqilob, keyinchalik axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining misli ko‘rilmagan rivoji oqibatida XXI asr boshlariga kelib fan taraqqiyoti sifat jihatidan mutlaq yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu ulkan o‘zgarishlar texnika va texnologiyalarga oid fanlarning (kibernetika, kosmanavtika, informatika va b.) ***texnik*** fanlar davrini boshlab berdi.

Ijtimoiy fanlar ham o‘z navbatida murakkab taraqqiyotni bosib o‘tgan. Sotsiologiya ijtimoiy fanlar va umuman fanlar tizimida alohida o‘ringa ega.

Fikrimizcha, sotsiologiya o‘zining obyektiga (o‘rganish sohasiga) va predmetiga (o‘z sohasini o‘rganish instrumentiriysiga) ko‘ra uchta muhim ko‘lamga ega: 1) inson jamiyatini uning total miqyosida o‘rganish; 2) jamiyatni maxsus sotsiologik tadqiqotlar (empirika, prognostika va b.) yordamida pozitiv tadqiq etish; 3) jamiyatning eng asosiy “atomi” bo‘lgan insonni (odam, individ, shaxs), uning strukturasini va harakatlari tuzilmalarini kompleks tahlil qilish.

Ogyust Kont (1798-1857) va Spenser (1820-1903) ta’limotida jamiyat tizim sifatidagi sotsium ekanligi ilk bor o‘zining ilmiy tahlilini topgan edi. Xususan, O.Kont o‘zining ko‘p jildlik “Pozitiv falsafa kursi” ilmiy asarining 3-jildida umumiyl sotsiologyaning prdmetini asoslashga harakat qilgan. Xususan, struktura-funksional yondashuv asosida jamiyatning tizimlilik xususiyati, uning asosiy parametrлari ochib berilgan, umuman jamiyatni tizim sifatida anglash va o‘rganish an’analariga asos solingan. Kontning fanlar klassifikatsiyasi “*matematika – astronomiya – fizika – ximiya – biologiya – sotsiologiya*” ko‘rinishida bo‘lgan.

Keyinchalik sotsiologiya klassiklari bu fanning predmetini aniqlash borasida o‘z ta’riflarini keltirganlar:

I. G Spenser talqiniga ko‘ra, sotsiologiyaning predmeti bo‘lib odamlar o‘zaro harakatlarining mahsuli sifatidagi sotsial guruhning funksiyalari hisoblanadi.

II. Maks Veber sotsiologiyani sotsial xulq-atvor va xatti-harakat mohiyatini tushunish bilan bog‘liq holda talqin qilgan. Uning fikricha, bunday xulq-atvor va xatti-harakat faqat shu vaziyatda mavjudki, bunda insonlar xatti-harakatlari orasida o‘zaro ruhiy aloqa bo‘ladi, ya’ni harakat qilayotgan individlardan biri boshqa harakatdagi individ xulq-atvori va xatti-harakatining “subyektiv ma’nosini” (sabablarini) tushunadi va o‘z harakatini shu asoga quradi (“Tushunuvchan sotsiologiya” g‘oyasi).

III. G.Zimmel (1858 - 1918) ta’kidlaydiki, “sotsiologiya insonlarni uyushtirish shakllari haqidagi fan.

IV. P.Sorokin (1889 - 1968) o‘z navbatida sotsiologiyani sinflar, sotsial hodisalarining va ular o‘rtasidagi munosabatlarning umumiy xarakteristikalari haqidagi fan deb hisoblagan.

V. E. Dyurkgeym (1858 - 1917) sotsiologiyani avval “*sotsial faktlar*” (“*narsalar*” ma’nosida) haqidagi fan deb talqin qilgan bo‘lsa, keyinchalik sotsiologiya *sotsial guruhlarni* o‘rganuvchi fan deb tushuntirgan (uning fikricha, sotsial guruhlar a’zolari alohida holatda (izolyatsiya sharoitida) bir xil tarzda: a) hissiyotlarni boshdan kechirsalar; b) fikr qilsalar va v) harakat qilsalar, sotsial guruhlar vaziyatida boshqacha faoliyatda bo‘ladilar). Shundan kelib chiqqan holda u sotsiologiyani *sotsial institutlar*, ularning kelib chiqishi va amal qilishi haqidagi fan deb tushuntiradi.

VI. T. Parsons (1902 - 1979) “sotsiologiya – sotsial tizimlarni o‘rganuvchi fandir” deb hisoblaydi.

VII. J. Landberg (1865 - 1966) sotsiologiyani odamlarning sotsial xulqg‘atvori va xatti-arakatlari haqidagi fan deb talqin etadi.

VIII. E.Bogardus fikricha, “sotsiologiya sotsial guruhlar haqidagi fandir”.

IX. Bir qator zamonaviy sotsiologlarning fikriga ko‘ra esa, sotsiologiya – turli ijtimoiy hodisalar turlarining o‘rtasidagi aloqalar qonuniyatlar haqidagi umumiyligini sotsial fandir¹.

1.2. Jamiatning ijtimoiy voqelik sifatidagi asosiy xususiyati – bu uning tizimliligidir. Quyida biz uning mohiyatini ko‘rib chiqamiz.

Tizim (qadimgi yunoncha σύστημα "yaxlit; qismlardan tashkil topgan") - ma’lum bir butunlikni, birlikni tashkil etuvchi, o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan qismlar (elementlar) to‘plamini anglatuvchi tushunchadir².

"Tizim" atamasidan foydalanish zarurati murakkab, mohiyatan birdaniga anglash mushkul bo‘lgan, lekin, shu bilan birga yaxlit hodisalarini ta’kidlash uchun ishlataladi. Shu bilan birga, tizim konsepsiysi shunchaki to‘plamni emas, murakkab tartiblilik, yaxlitlik va doimiy rivojlanishni ifodalaydi. Bu tushunchaning chuqur mazmuni, garmoniyasi va o‘ziga xos estetikasi shundaki, u ko‘pchilik elementlarni yaxlitlikka uyg‘unlashtiradi (tabiatga chuqurroq nazar solishning o‘zi yetarlidir.).

Kundalik amaliyotda "tizim" so‘zi turli ma’nolarda ishlatalishi mumkin, bular quyidagilardir³:

- *nazariya* ma’nosida, masalan, Aflatunning falsafiy tizimi;
- *fanda tasniflashda*, masalan, Dmitriy Mendeleyevning kimyoviy elementlarning davriy tizimi;

¹ Қаранг: Маркович Д.Ж. Общая социология: Учебник. Изд. 3-е перераб. И доп. / Пер. с сербского. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1998. – С. 41 – 48.

² Қаранг: Большой Российский энциклопедический словарь. – М.: БРЭ. – 2003. – С. 1437.

³ Қаранг: Батоврин В.К. Толковый словарь по системной и программной инженерии. – М.: ДМК Пресс. 2012. – С.280.

- *amaliy faoliyat uslubi* sifatida, masalan, teatr san'atida Stanislavskiy tizimi;
- *aqliy faoliyatni tashkil etish usuli* sifatida, masalan,

matematikadagi sanoq tizimi;

- *tabiat, koinotdagi obyektlar majmuasi*, masalan, Quyosh tizimi; *jamiyatning ba'zi xususiyat va sohalari*, masalan, sotsiumning siyosiy tizimi, iqtisodiy tizimi va b.

Ijtimoiy tizim va jarayonlar sotsiologiyasi uchun fundamental ahamiyatga ega bo'lgan yana bir muhim jihatga to'xtalaylik. Gap shundaki, "tizim" tushunchasi jamiyatni yaxlit sotsial reallik sifatida anglash va uni shu pozitsiyadan turib tadqiq etishning ilmiy modeliga ega bo'lish imkonini beradi. Bunda ushbu tushunchadan nafaqat obyektiv mavjud hodisalarни belgilash uchun, balki jamiyat hayotiga va uning muhim hayotiy sohalariga oid hodisalarни o'rganish va tahlil qilishning subyektiv modeli sifatida ham qarash zarur.

Yuqorida ta'kidlangan ikki jihat sotsial tizimning yuksak shakli bo'lgan jamiyatga ham xosdir. Umuman olganda, tizimlar haqidagi fanlar, shuningdek tizimli fanlar – astronomiya, fizika, biologiya qatorida sotsiologiya ham (shu o'rinda Ogyust Kontning fanlar tanifini eslash o'rinnlidir) tizim kategoriyasini o'zining eng muhim tushunchasi sifatida qabul qiladi. Bunda tizim nafaqat o'zaro aloqadorlikda va harakatda bo'lgan qismlarning (komponentlarning) majmuasi (kompleksi), nafaqat bir tomonidan bir-biriga nisbatan, ikkinchi tomonidan boshqa tashqi tizimlar, ya'ni tabiiy muhit (tabiat) bilan munosabatda bo'lgan elementlarning yaxlitligi deb qabul qilinishi kerak. Yana bir muhim voqelik shuki, tizim o'zaro harakatga kirishuvchi elementlarning majmuasi bo'lishi bilan birga, ma'lum bir maqsadlarga erishish uchun tashkil etilgan tarkibiy qismlarning o'ziga xos to'qimasi (kombinatsiyasi) sifatida faoliyatga daxldordir. Bu ayniqsa aql va tafakkurga ega bo'lgan mavjudotlar, ya'ni insonlar jamiyati (sotsium) uchun ayniqsa xosdir.

Endi tizimlar nazariyasi vakillari (L. fon Bertalanfi, Maks Veber, T.Parsons, Merton va b.) qarashlaridan kelib chiqqan holda jamiyat va boshqa yaxlit tizimlarni

tashkil etuvchi hamda tizimning amal qilishi va rivojlanishiga oid eng asosiy tushunchalarga to‘xtalamiz. Bular quyidagilardir:

I. Tizim va uning tuzilishini ifodalovchi tushunchalar:

Element – tizimning qo‘yilgan maqsad va belgilangan aniq vazifalar ijrosiga erishish nuqtai nazaridan qismlarga bo‘linishing chegarasi.

Komponent (quyi tizim) - tizimning xususiyatlarini, xususan maqsadning ham bir jihatini o‘zida aks ettirgan, nisbatan mustaqil qismi (masalan, jamiyatning siyosiy tizimi).

Aloqa, munosabat – elementlar erkinligi darajasining chegaralanishi: bunda qismlar o‘z imkoniyatlariga ko‘ra ega bo‘lgan xususiyatlari va erkinlik darajalarining bir qismini yo‘qotadilar; shu vaqtning o‘zida tizim yaxlitlik sifatida yangi xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Struktura (tuzilma) – eng muhim qismlar va aloqalar bo‘lib, tizimning amal qilishi sharoitlarida kam o‘zgaradi va tizim hamda uning asosiy xususiyatlarining mavjudligini ta’minlaydi. Struktura tizimning uyushganligini (tashkillashtirilganligini), elementlar va aloqalarning vaqt mobaynida barqarorligi va tartiblanganligini ifodalaydi.

Maqsad – eng mo‘ljalli intilishlar, faoliyatga undash hamda yakuniy natijani nazarda tutuvchi faoliyat.

II. Tizimning amal qilishi va rivojlanishini ifodalovchi tushunchalar:

Holat tizimning bir zumlik “fotosurat”, “kesilgan” holati; tizimning ma’lum vaqt mobaynida parametrlari ahamiyatining qayd etilishi.

Xatti-harakat – tizimning bir holatdan ikkinchisiga o‘tishining ma’lum va noma’lum qonuniyatları bo‘lib, bu qonuniyatlar ham tashqi muhit, ham tizimning o‘zining maqsadlarining o‘zaro harakatlari sifatida namoyon bo‘ladi. Rivojlanish, evolyusiya - tizimning vaqt mobaynidagi o‘zgarishi bo‘lib, bunda uning nafaqat

holati, balki jismoniy tabiat, tuzilmasi, xulq-atvori va hatto maqsadi o‘zgarishi mumkin.

Hayotiy davriylik (sikl) - tizimning rivojlanish jarayonining bosqichlari bo‘lib, bunda sikl tizimga ehtiyoj paydo bo‘lgan paytdan boshlab to uning yo‘q bo‘lib ketishigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

1.3. Jamiyat ijtimoiy tizimning murakkab shakli ekanligini ta’kidladik. Lekin, uni murakab ijtimoiy tizim sifatida ifodalaydigan eng muhim *umumtizimiylarini* aniqlash zarur. Ko‘pchilik mutaxassislar fikricha, ular quyidagilardan iborat:

1) ***Integrativlik.*** Jamiyatning bu xususiyati uning o‘z chegaralaridagina yaxlitlik kasb etishini anglatadi. Bunda tizim tarkibida bo‘lgan elementlarning o‘zaro aloqalarning kuchi va ahamiyati mazkur tizimga nisbatan tashqi bo‘lgan tizim va muhitdagi elementlar aloqadorligidan yuqori bo‘lishi zarur. Shu holatda tizimyasovchi va tizimsaqllovchi omillar mavjud bo‘ladi va ular integrativ deyiladi⁴.

2) ***Sinergiklik, tizimlilik effekti, yaxlitlik.*** Bu tizimda uning elementlariga xos bo‘lmagan xususiyatlarning paydo bo‘lganligini anglatadi. Boshqacha aytganda, bu tizim xususiyatlarining uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar yig‘indisiga qat’iyan teng emasligini anglatadi. Bunda tizimning imkoniyatlari uni tashkil etuvchi qismlar imkoniyatlari yig‘indisidan ustundir, ya’ni tizimning umumiylari samaradorligi yoki ishlashi elementlarning oddiy yig‘indisidan afzaldir⁵.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosaga kelish mumkin: *Tizim – birgalikda xatti-harakat va mazmun hosil qiladigan, lekin alohida tarzda bunga qodir bo‘lmagan elementlarning (qismlarning) kompozitsiyasidir*⁶.

⁴ Қаранг: ўша жойда

⁵ Қаранг: ўша жойда

⁶ Қаранг: ўша жойда

3) *Iyerarxiyalilik (ko‘ppog‘onalilik)*. Bunda tizimning har bir elementini o‘z navbatida tizim deb hisoblash mumkin; tizimning o‘zi ham u yoki bu supersistemaning elementi sifatida qaralishi mumkin. Yuqori darajadagi iyerarxik daraja quyi pog‘onaga ta’sir qiladi va aksincha: iyerarxiyaning bo‘ysunuvchi a’zolari o‘zlarida mavjud bo‘lmagan yangi xususiyatlarga ega bo‘ladilar (butunning elementlarga ta’siri). Bu xususiyatlarning paydo bo‘lishi natijasida yangi, boshqacha “butunning ko‘rinishi” hosil bo‘ladi (elementlar xossalaring butunga ta’siri)⁷.

Nazorat savollari:

1. *Sotsiologiya nazariyasi va tarixidagi asosiy paradigmalarni keltiring*
2. *Jamiyatning ijtimoiy tizim sifatidagi umumstrukturaviy xususiyatlarini sanab bering*
3. *Sotsium deganda nimani tushunasiz?*

Adabiyotlar:

1. Babosov YE.M. Sovremenniy sotsium: xarakter i napravlennost razvitiya / YE.M.Babosov, CH.S.Kirvel, O.A.Romanov. – Minsk: izdatelstvo «chetire chetverti», 2013. – 728 s.
2. Giddens Entoni. SotsiologiY. – M.: Editorial URSS, 1999. – 704 s. 3. Xarari Y.N. Sapiens. Kratkaya istoriya chelovechestva / Yuval Noy Xarari; [per. s angl. L.Summ]. – M.: Sindbad, 2020. – 512 s.
4. Shtompka P. SotsiologiY. Analiz sovremennoego obshchestva: Per. s polsk. S. M. Chervonnoy. – M.: Logos, 2005. – 664 s.

⁷ Қаранг: ўша жойда

2-mavzu: ZAMONAVIY SOTSILOGIK NAZARIYALARDAGI ASOSIY TUSHUNCHALAR: SOTSIUM, SOTSIAL STRUKTURA, SOTSIAL HARAKAT, SOTSIAL ALOQALAR (E.GIDDENS TALQINI)

Reja:

1. *Sotsial struktura va uning tarkibiy elementlari (sotsial institutlar, hokimiyat strukturasi va b.)*
2. *Sotsial harakat va uning asosiy shakllari (urbanizatsiya, sotsial mobillik, sotsial harakatlar (revolyusiyalar), sotsial o‘zgarishlar, globalizatsiya)*
3. *Sotsial aloqalar (shaxs va sotsializatsiya, madaniyat va jamiyat, sotsial o‘zaro harakatlar va kundalik hayot, konformlik va deviantlik, gender va oila) sotsiologiyaning muhim tushunchasi sifatida*
4. *Konflikt va konsensus jamiyat mavjudligining realligi sifatida*

Tayanch iboralar:

Sotsial struktura, element, urbanizatsiya, sotsial mobillik, migratsiya, inqilob, islohot, globalizatsiya, ijtimoiylashuv, madaniyat, gender, kundalik hayot, konflikt, konsensus

2.1. Tizimlar nazariyasi va tizim tahlili bo‘yicha deyarli har konsepsiyada tizimlarni tasniflash masalasini nazarda tutadi, murakkab tizimlarni tasniflashda xilma-xil qarashlar kuzatiladi. Ko‘pgina tasniflar asosan o‘rganilayotgan vazifalar nuqtai nazaridan muhim bo‘lgan ba’zi bir tizim turlarini shunchaki sanab o‘tishga ahamiyat qaratadi, bunda tizimlarni ajratish belgilarini (asoslarini) tanlash tamoyillari va tasnifning to‘liqligi to‘g‘risida savollar qo‘yilmaydi.

Jamiyatni ijtimoiy tizim sifatida qarar ekanmiz, uni bir tomondan boshqa tizimlarga qiyosan va boshqa tomondan uning ichki kichik tizimlari nuqtai nazaridan qiyoslashga e'tibor qaratishimiz lozim.

Tasniflash predmet va tushunchalar (kategorial) tamoyillar bo'yicha amalga oshiriladi.

Tasniflashning predmet prinsipi o'rganilayotgan obyekt turini (texnik, biologik va b.) hisobga olgan holda tabiat va jamiyatda mavjud bo'lgan aniq tizimlarning asosiy turlarini aniqlashdan iborat.

Kategorik tasnifga ko'ra tizimlar, moddiy jihatdan qanday bo'lishidan qat'iy nazar, har qanday tizimlarga xos bo'lgan umumiyligini xususiyatlarga ko'ra bo'linadilar⁸ va bunda eng ko'p tarzda quyidagi kategorik xususiyatlar hisobga olinadi:

-miqdoriy jihatdan tizimlarning barcha tarkibiy qismlarini *monokomponentlar* (bitta element, bitta munosabat) va *polikomponentlar* (ko'plab xususiyatlar, ko'plab elementlar, ko'plab munosabatlar) sifatida tavsiflash mumkin;

-*statik* tizim shu bilan belgilanadiki, u nisbatan tinch holatda bo'lishi mumkin, bunda uning holati vaqt o'tishi mobaynida doimiy bo'lib turishi mumkin. *Dinamik* tizim o'z holatini vaqt mobaynida o'zgartiradi;

-*ochiq* tizimlar atrof-muhit bilan modda, energiya yoki axborot almashinadi. Agar tizimga hech qanday materiya, energiya yoki axborot kirmasa hamda chiqmasa, u *yopiq* hisoblanadi;

-*determinatsiyalashgan* tizimlarning xatti-harakatlari ularning holati to'g'risidagi ma'lumotlarga asosida oldindan tushunarli bo'ladi va oldindan aytib berilishi mumkin. *Ehtimolli* tizimining xatti-harakatlari ushbu ma'lumotlar bilan to'liq belgilanmaydi, shu tufayli tizimning u yoki bu holatga o'tish ehtimoli haqidagina so'z yuritish mumkin;

⁸ Қаранг:

-*gomogen* (bir turdag'i) tizimlarda (masalan, ma'lum bir turdag'i organizmlar populyatsiyasida) elementlar bir turda bo'ladi, shuning uchun ular bir-birining o'rnini bosa oladi. *Geterogen* (aralash) tizimlar o'zaro birbirining o'rnini bosa olish xususiyatlariga ega bo'lmasan turli elementlardan iboratdir;

-*diskret* tizimlar aniq ajratilgan (mantiqiy yoki jismoniy jihatdan) elementlardan tashkil topgan deb qaraladi; uzluksiz tizimlar qonuniyatlar va jarayonlar nuqtai nazaridan qaraladi. Ammo ushbu tushunchalar nisbiydir: ma'lum bir tizim bir nuqtai nazaridan diskret, boshqasiga ko'ra esa – *uzluksiz* bo'lishi mumkin (elementar zarrachalar va nurning korpuskulyar-to'lqin dualizmi bunga misol bo'la oladi).

-kelib chiqishiga ko'ra *sun'iy*, *tabiiy* va *aralash* tizimlar farqlanadi.

-tashkil bo'lishi darajasiga ko'ra *yaxshi tashkil etilgan*; *yomon tashkil etilgan* (*tarqoq*) va *rivojlanayotgan* (*o'zini-o'zi tashkil etuvchi*) tizimlar ajratiladi;

-tizimlarni *sodda* va *murakkab* tizimlarga ajratishda turli yondashuvlar kuzatiladi. Ammo ko'pincha tizimning murakkabligiga elementlarning ko'p sonligi, ularni bog'lashning turli shakllarga egaligi, maqsadlarning ko'pligi, elementlar tabiatining xilma-xilligi, tarkibi va tuzilishining o'zgaruvchanligi va h.k. sabab bo'ladi⁹.

-moddiylik nuqtai nazaridan tizimlar ham *jismoniy*, ham *konseptual* (*funktional*) bo'lishi yoki har ikkalasining jamlanmasi (kombinatsiyasi) bo'lishi mumkin. Jismoniy tizimlar materiya va energiyadan tashkil topgan bo'lib, ular o'z ichiga axborotni olishi va ma'lum bir xatti-harakatlarni ham olishi mumkin. Konseptual tizimlar mavhum mazmunga ega bo'lib, sof ma'lumotlardan iborat va xulq-atvordan ko'ra ma'noni namoyish etadi¹⁰.

2.2. “Sotsial” tushunchasi (lot. socialis - ijtimoiy) keng va tor ma'noda ishlataladi.

⁹ Қаранг:

¹⁰ Қаранг:

Keng ma'noda "sotsial" tushunchasi "ijtimoiy" degan ma'noni anglatadi, ya'ni uning tabiat va boshqa tizimlarga emas, balk jamiyatga tegishli ekanligini. Shu ma'noda "sotsial" tushunchasi sotsiologiya va boshqa ijtimoiy fanlarda qo'llaniladi.

Tor ma'noda "ijtimoiy" tushunchasi jamiyat hayotining boshqa sohalari - iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy sohalarida emas, balki sotsial sohada yuz beruvchi ijtimoiy jarayonlarni tavsiflash uchun ishlataladi.

Turli xil ijtimoiy o'zgarishlarning chambarchas bog'liqligi "ijtimoiy jarayonlar" tushunchasida aks etadi, bu ijtimoiy o'zgarishlarning o'zaro bog'liqligi va uzlusizligini nazarda tutadi. Ijtimoiy voiyelikning jarayonli (protsessualligi) ekanligiga e'tiborni qaratish zamonaviy sotsiologiyaning muhim tendensiyalaridan biridir. Jamiyat balki diskret ijtimoiy o'zgarishlarni boshidan kechirayotgan barqaror holatdagi reallik sifatida emas, balki jarayon, ya'ni o'zaro ta'sirlar maydoni sifatida qaraladi. P. Shtompka bu haqda shunday ta'kidlaydi: "Ontologik jihatdan shunchaki jamiyat mavjud emas va u o'zgarmas holatda mavjud bo'la olmaydi. Butun bir sotsial reallik dinamikani nazarda tutadi".

Ijtimoiy jarayonlar - bu jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlarning ma'lum bir manfaatlarini qondirish maqsadida sotsiumda vujudga kelgan sharoitlarga ta'sir ko'rsatishga intilishlaridan kelib chiqadigan o'zgarishlardir.

Mashhur rus olimi P. Sorokin ijtimoiy jarayonning klassik ta'rifini bergen: «Jarayon deganda har qanday harakat, modifikatsiya, transformatsiya, navbatma-navbat o'rin almashinishlar yoki "evolyusiya", qisqacha qilib aytganda o'rganilayotgan obyektning ma'lum vaqt davomida, uning makondagi

harakati yoki miqdoriy va sifat xususiyatlaridagi o‘zgarishi bo‘lsin har qanday o‘zgarlar tushuniladi»¹¹.

Ijtimoiy jarayonlar ijtimoiy guruhlarning jamiyat hayotining turli sohalardagi manfaatlarining qondirilishi, shuningdek ijtimoiy jarayonlaridagi ishtirokiga bog‘liq tarzda quyidagi turlarga bo‘linadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar;
- ijtimoiy-siyosiy jarayonlar;
- ijtimoiy-siyosiy jarayonlar;
- demografik jarayonlar;
- kombinatsiyalashgan jarayonlar va b.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar - bu mohiyatan ijtimoiy subyektlarning iqtisodiy tengsizligi natijasida kelib chiqqan ijtimoiy jarayonlardir. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar kishilarining kundalik hayoti muammolariga bog‘liqligi tufayli alohida ahamiyatga ega. Ular hayotni ta’minalash, ish bilan ta’minalash, ish haqi, ijtimoiy kafolatlar kabi jarayonlariga bo‘linadi. Xususan, hayotni qo’llabquvvatlash oziq-ovqat, kiyim-kechak, poyabzal; uy-joy communal xizmatlari; uy va madaniy buyumlar bilan ta’minalash; tibbiy, yuridik xizmatlar; ta’lim; qonun va tartibni ta’minalash; transport va aloqa xizmatlari; dam olish va bo’sh vaqtni ta’minalash shular jumlasidandir.

Ish bilan ta’minalash, ish haqi va pensiyalar odatda ko‘pchilikka ma’lum tushunchalardir. Ijtimoiy kafolatlar - bu aholining ijtimoiy himoyalangan guruhlariga: yolg‘iz onalar, nogironlar, qariyalar va boshqalarga byudjet va byudjetdan tashqari to‘lovlarni nazarda tutadigan shartli tushuncha hisoblanadi.

¹¹ Қаранг:

Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar - bu turli ijtimoiy subyektlarning siyosiy imkoniyatlarini taqsimlash va qayta taqsimlash, ularning siyosiy maqomining o'zgarishi bilan bojarayonlardir.

Demografik jarayonlar - bu ma'lum bir hududdagi aholining ko'payishi hamda xalqlar, millatlar, etnik guruhlar holatining o'zgarishidir. Bugungi globallashuv jarayonlari dunyoda, davlatlarda, mintaqalarda migratsiya jarayonlarining keng jabhalarda namoyon bo'lishiga olib keldi. Shuni ta'kidlash zarurki, sotsial guruhlarning harakatlari demografik mazmundagi jarayonlarga ta'sir qilganda, ular sotsiologiyaning tadqiqot mavzusiga aylanadi.

Kombinatsiyalashgan jarayonlar - bu ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning xususiyatlarini birlashtirgan jarayonlardir. Kombinatsiyalangan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlar (IISM) sirasiga gender jarayonlarni kiritish mumkin.

Gender jarayonlari odamlarning yoshi va jinsi xususiyatlaridan kelib chiqadigan jarayonlarga xos bo'lib, bir tomondan, ularning demografik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan iqtisodiy va siyosiy muhitning o'ziga xos xususiyatlari bilan ham ko'p tomonlama munosabatlar bilan belgilanadi.

2.3. Jamiyatdagi sotsial aloqalar ko'p ma'noda undagi integratsiya differensiatsiya jarayonlari bilan belgilanadi. Jamiyat hayotida ijtimoiy integratsiya va differensiatsiya tushunchalari yaxlitlik va xususiylik mazmunida bo'lib, integratsiya jarayonlari kengroq miqyosga egaligi tufayli, avvalo ijtimoiy differensiya hodisasidan boshlash maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy differensiatsiya tushunchasi sotsiumning biriga nisbatan turli xil ijtimoiy holatda bo'lgan guruhlarga bo'linishini anglatadi. Har qanday jamiyatga xos bshlgan

ijtimoiy differensiatsiya sotsial guruhlarning o‘z ijtimoiy maqomi va holatiga mos tarzda tuzilmani anglatadi. Ayniqsa, jamiyatning ijtimoiy stratifikatsiyasida buni yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Ma’lumki, zamonaviy jamiyatlarda stratifikatsiya jarayonlari yangi ijtimoiy qatlamlarning paydo bo‘lishi va ularning siljuvchanligi (mobilligi) bilan ifodalanadi. Umumiylar esa stratifikatsiya jarayonlarini tadqiq etish jamiyatdagi qatlamlarning qay darajada shakllanganligi, bu qatlamlardagi ichki va tashqi mobillik, ya’ni bir qatlamdan boshqa qatlamga o‘sib o’tishi, yoki aksincha, pastroq qatlamga tushib qolishi singari ijtimoiy jarayonlarning holatini diagnostika qilishda muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, stratifikatsiya jarayonlarining ijtimoiy mobillik, umuman ijtimoiy harakatlar bilan bog‘liq jixatlarini tadqiq etish jamiyatdagi harakatchan qatlamlarning holatlarini bilib olish imkonini beradi. Shuningdek, o‘z navbatida, stratifikatsiya jarayonlari dinamikasini o‘rganish orqali jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning tizimli mazmuni va ko‘lamiga nisbatan aniq tashxis qo‘yish mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur bobda sotsial stratifikatsiya hodisasi, shuningdek, ijtimoiy stratifikatsiya tizimlari, ularning belgilari va dinamikasi, stratifikatsiya jarayonlarining jamiyat hayotida aks etishi tahlil etilgan.

Stratifikatsiya lotincha “stratum” so‘zidan olingan bo‘lib, “strata” (“qatlam”) tushunchasi bilan ifodalanadi. Ijtimoiy tuzilmasiga (strukturasiga) ko‘ra an’anaviy bo‘lgan jamiyatlarda ijtimoiy guruhlar gorizontal joylashadi; tabaqlashgan (stratalashgan) jamiyatlarda esa, bundan farqli o‘laroq, munosabatlarning vertikal yo‘nalish bo‘yicha amalga oshishi kuzatiladi. Taqqoslash o‘rnida shuni keltirib o‘tish joizki, tabiiy sharoitda yer qobig‘ining geologik stratalari bir-biriga nisbatan ustma-ust joylashgan bo‘lib, tag qismidagi qatlam ustki qatlamning ta’siri (bosimi) ostida bo‘ladi, qatlamlarning o‘zaro chegaralari esa deyarli o‘zgarmas bo‘lib, biridan ikkinchisiga, ayniqsa pastki qatlamlardan yuqorisiga o’tishi kuzatilmaydi. Jamiyatda esa, bundan farqli ravishda, turli ijtimoiy qatlamlar, guruhlar ichki va o‘zaro tarzda harakatchan

bo‘lib, ularning jamiyat ijtimoiy iyerarxiyasidagi (pog‘onalaridagi) joylashuvi va o‘rni, ya’ni ijtimoiy statusi tez-tez o‘zgarib turadi. Binobarin, jamiyat hayotidagi mavjud ijtimoiy stratifikatsiya jarayonlarini tabiiy hodisalarga, xususan yerning tuzilishidagi geologik qatlamlarga nisbatan qiyoslash faqat shartli ravishda amalga oshirilishi mumkin, xolos.

Umumiy ma’noda, sotsial stratifikatsiya jamiyatning turli tabaqa, qatlam, pog‘onalarga bo‘linib ketishi jarayonlarini anglatadi. Ushbu tushunchaga asoslangan nazariyalar ijtimoiy tabaqlanish jarayonlarining mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Shuni ham alohida ta’kidlash zarurki, sotsial stratifikatsiya jarayonlarini tahlil qilgan har bir sotsiolog muqarrar ravishda ijtimoiy tabaqlanishdan so‘ng ijtimoiy tengsizlik muammosini ham hal qilishga urinadi. Xususan, Dyurkgeym an’analariga xos bo‘lgan funksionalizm ta’limoti ijtimoiy tengsizlikni mehnat taqsimotidan keltirib chiqardi; unga ko‘ra, mehnat taqsimotining mexanik va organik shakllari mavjud bo‘lib, birinchisiga odamlar orasidagi jismoniy, jinsiy va yoshga oid farqlar, ikkinchisiga ma’lumot olish, kasb egallash jarayonida vujudga keladigan tafovutlar xosdir.

Har qanday jamiyatni bir qancha mezonlar asosida turli ijtimoiy tabaqlarga bo‘lish mumkin. Shunga mos tarzda har bir davrda muayyan ijtimoiy tengsizlik turlari mavjud bo‘ladi va qayta tiklanib turadi. Shu ma’noda ijtimoiy tabaqlanishning xarakteri hamda uning qaror topish usuli *jamiyatning stratifikatsion tizimi* deb yuritiladi. Dissertatsiyada mavzuga oid adabiyotlar tahlili natijasida ta’kidlanadiki, insoniyat tarixiga nisbatan stratifikatsiya tizimlarining quyidagi asosiy keltiriladi: a) kasta tizimi; b) quldorlik; c) sinfiy tizim. Bularning ayrimlari tarixda qolib ketgan, ba’zilari hozirgi zamonda ham kuzatiladi.

Sotsial stratifikatsiya jarayonlari hodisasiqa qaytadigan bo‘lsak, shunisi aniqki, u har qanday jamiyatga muayyan darajada xos bo‘lib, sotsial makonning ko‘p o‘lchamli va iyerarxik tarzda tashkil topishini ifoda etadi. Ijtimoiy munosabatlarning serqirra va murakkab tizimida har bir ijtimoiy guruh, qatlam va tabaqa ma’lum bir o‘rinni

egallaydi, boshqa sotsial subyektlar bilan turli munosabatlarga kirishadi. Bir ijtimoiy guruh boshqasidan o‘z mol-mulki, daromadi, shuningdek, siyosiy hokimiyatga yaqinligi, umumiy ma’noda ijtimoiy nufuziga ko‘ra ustun yoki quyi darajada turadi. Shu ma’noda sotsial qatlama (strata) shartli guruh bo‘lib, uning sotsial statusi (maqomi), boshqa guruhga qaram bo‘lishi yoki unga o‘z hukmini o‘tkaza olishi ma’lum bir ijtimoiy davr va makon chegarasida amal qiladi.

Hozirgi davr stratifikatsiya jarayonlari ijtimoiy tafsizlik, bir guruhning boshqasiga nisbatan yuqori yoki quyi joylashishi, ayni paytda bir guruhdan boshqasiga o‘tishi, ya’ni sotsial mobillik jarayonlari asnosida namoyon bo‘lmoqda. Demokratik, huquqiy davlatlarda barcha fuqarolar, ijtimoiy statusi va kelib chiqishidan qat’iy nazar, yuridik jihatdan teng huquqlidirlar. Biroq real hayotda, tom ma’noda barcha sotsial guruhlar teng bo‘la olmaydilar. Ko‘pchilik sotsiologlar fikricha, aynan tafsizlik harakatga kelish, rivojlanish uchun rag‘bat (stimul) bo‘lib xizmat qiladi. Aytish mumkinki, insoniyat jamiyatining barcha bosqichlari uchun odamlarning va ijtimoiy qatlamlarning o‘zaro tafsizligi xosdir.

Turli davrlar mutafakkirlari ijtimoiy tafsizlikning sabablarini axtarib, uni bartaraf etish rejalarini tuzishgani tarixdan ma’lum. Tafsizlik bir tabaqaning boshqasidan ustunligiga sabab bo‘lishi, bir sinfning boshqasi ustidan hukmronlik o‘rnatishi, hatto turli tabaqalar o‘rtasidagi ziddiyatlarni keltirib chiqarishi bilan birga, raqobatni ham tug‘diradi, bu esa ijtimoiy mavqeい jihatidan yuqoriroq sinfga o‘tish uchun harakat qilishga rag‘bat uyg‘otadi. Masalaning falsafiy tomonini emas, sotsiologik jihatini tadqiq qilish shuni ko‘rsatadiki, jamiyat individlarning faoliyatini, intilishini rag‘batlantirish, ijtimoiy (iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-axloqiy) yuksalishga erishishlari uchun o‘z a’zolarining faolligini oshirishga tabiiy ehtiyoj sezadi. Buning uchun ayrim kasb-kor va faoliyat yo‘nalishlariga turli imtiyoz va mukofotlar beriladi. Sotsial stratifikatsiya hodisasi va jarayonlari shu kabi ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqadi.

Ijtimoiy integratsiya – sotsiumdagi ijtimoiy tizimlarning o‘zaro hamkorlikka yo‘nalgan yaqinlashish jarayonlaridir. Bunda nisbatan mustaqil bo‘lgan sotsial subyektlar (individlar, sotsial guruhlar) o‘rtasida zarur aloqalar o‘rnatilishi jarayonlari barqaror tus oladi.

2.4. Tizimlarga nisbatan oldingi mavzular doirasida keltirilgan tasniflash (klassifikatsiya) jamiyatning tizim sifatiga xos xususiyatlarida ham, uning bir tomondan boshqa tizimlar orasidagi (xususan, supertizimlar) o‘rniga, boshqa tomondan uning o‘z ichki elementlari o‘rtasidagi aloqadorliklarda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Gap shundaki, ijtimoiy tizim (sotsium) hal etilishi kerak bo‘lgan muammolarning xilma-xilligidan ko‘ra, bunday xilma-xillikni yaratishga qodir bo‘lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, jamiyat tizim sifatida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan buzilishlarga javoban o‘z holatini o‘zgartira olishi kerak. Zero, turli xil buzilishlar mumkin bo‘lgan holatlarning mos keladigan xilma-xillagini talab qiladi. Aks holda, bunday tizim tashqi muhit tomonidan ilgari surilgan boshqaruva vazifalarini bajara olmaydi va samarasiz bo‘ladi. Turli-tumanlikning yo‘qligi ushbu tizimni tashkil etuvchi quyi tizimlarning yaxlitligining buzganligini ko‘rsatishi mumkin.

Ijtimoiy jarayonlar ijtimoiy guruhlarning jamiyat hayotining turli sohalardagi manfaatlarining qondirilishi, shuningdek ijtimoiy jarayonlaridagi ishtirokiga bog‘liq tarzda quydagi turlarga bo‘linadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar;
- ijtimoiy-siyosiy jarayonlar;
- ijtimoiy-siyosiy jarayonlar;
- demografik jarayonlar;
- kombinatsiyalashgan jarayonlar va b.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar - bu mohiyatan ijtimoiy subyektlarning iqtisodiy tengsizligi natijasida kelib chiqqan ijtimoiy jarayonlardir. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar kishilarning kundalik hayoti muammolariga bog‘liqligi tufayli alohida ahamiyatga ega. Ular hayotni ta’minalash, ish bilan ta’minalash, ish haqi, ijtimoiy kafolatlar kabi jarayonlariga bo‘linadi. Xususan, hayotni qo‘llabquvvatlash oziq-ovqat, kiyim-kechak, poyabzal; uy-joy kommunal xizmatlari; uy va madaniy buyumlar bilan ta’minalash; tibbiy, yuridik xizmatlar; ta’lim; qonun va tartibni ta’minalash; transport va aloqa xizmatlari; dam olish va bo‘sh vaqtni ta’minalash shular jumlasidandir.

Ish bilan ta’minalash, ish haqi va pensiyalar odatda ko‘pchilikka ma’lum tushunchalardir. Ijtimoiy kafolatlar - bu aholining ijtimoiy himoyalangan guruhlariga: yolg‘iz onalar, nogironlar, qariyalar va boshqalarga byudjet va byudjetdan tashqari to‘lovlarni nazarda tutadigan shartli tushuncha hisoblanadi.

Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar - bu turli ijtimoiy subyektlarning siyosiy imkoniyatlarini taqsimlash va qayta taqsimlash, ularning siyosiy maqomining o‘zgarishi bilan bojarayonlardir.

Demografik jarayonlar - bu ma’lum bir hududdagi aholining ko‘payishi hamda xalqlar, millatlar, etnik guruhlar holatining o‘zgarishidir. Bugungi globallashuv jarayonlari dunyoda, davlatlarda, mintaqalarda migratsiya jarayonlarining keng jabhalarda namoyon bo‘lishiga olib keldi. Shuni ta’kidlash zarurki, sotsial guruhlarning harakatlari demografik mazmundagi jarayonlarga ta’sir qilganda, ular sotsiologiyaning tadqiqot mavzusiga aylanadi.

Kombinatsiyalashgan jarayonlar - bu ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning xususiyatlarini birlashtirgan jarayonlardir.

Kombinatsiyalangan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlar (IISM) sirasiga gender jarayonlarni kiritish mumkin.

Gender jarayonlari odamlarning yoshi va jinsi xususiyatlaridan kelib chiqadigan jarayonlarga xos bo‘lib, bir tomondan, ularning demografik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan iqtisodiy va siyosiy muhitning o‘ziga xos xususiyatlari bilan ham ko‘p tomonlama munosabatlar bilan belgilanadi.

Nazorat savollari:

1. *Sotsial struktura tahlili qanday uslubga asoslanadi?*
2. *Sotsial harakat haqidagi asosiy knotsepsiyalarni keltiring*
3. *Sotsial aloqalar va ularning turlari haqida nimani bilasiz?*
4. *Konflikt va konsensus: qiyosiy tahlilini keltiring*

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Babosov YE.M. Sovremenniy sotsium: xarakter i napravlennost razvitiya / YE.M.Babosov, CH.S.Kirvel, O.A.Romanov. – Minsk: izdatelstvo «chetire chetverti», 2013. – 728 s.
2. Giddens Entoni. Sotsiologiy. – M.: Editorial URSS, 1999. – 704 s. 3. Xarari Y.N. Sapiens. Kratkaya istoriya chelovechestva / Yuval Noy Xarari; [per. s angl. L.Summ]. – M.: Sindbad, 2020. – 512 s.
4. Shtompka P. Sotsiologiy. Analiz sovremennoego obshchestva: Per. s polsk. S. M. Chervonnoy. – M.: Logos, 2005. – 664 s.

Internet resurslari

1. www.lib.socio.msu.ru
2. <http://www.socioline.ru>
3. <http://www.socio.rin.ru>
4. <http://www.sociologos.narod.ru>

**3-mavzu: JAMIYAT SOTSILOGIYA PREDMETI SIFATIDA
(SOTSILOGIYADA JAMIYAT TAHLILI) (P.SHTOMPKA TAQINI)**

Reja:

- 1. Inson faolligi sotsial kontekst sifatida*
- 2. Sotsial birliklar*
- 3. Madaniyat, qadriyatlar, globalizatsiya, ijtimoiy fikr jamiyat hayotining determinantlari sifatida*
- 4. Sotsial stratifikatsiya E.Giddens va P.Shtompka talqinida: qiyosiy tahlil*
- 5. Jamiyat funksionalligi (sotsializatsiya, sotsial nazorat va institusionalizatsiya)*
- 6. Sotsial o‘zgarishlar (sotsial vaqt, sotsial inqilob, globalizatsiya)*

Tayanch iboralar: *Inson faolligi, ijtimoiy faoliyat, sotsial xulq-atvor, sotsial xattiharakat, sotsial aloqalar, konflikt, konsensus*

3.1. Jamiyat doimiy o‘zgarishlar girdobidagi tirik sotsial borliqdir. Uning ushbu sotsial tabiatini ijtimoiy tizim o‘zgarishlarining aniq trayektoriyalari mavjud emasligini keltirib chiqaradi.

Sotsiallikning eng kichik zarrachasi, “atomi” bo‘lgan individ harakatlaridan boshlab ijtimoiylashuv jarayonlari ijtimoiy munosabatlar murakkablashgani sari institusionallashuv jarayonlari bilan boyib boradi. Buni “shaxslararo munosabatlar - ijtimoiy harakatlar” ko‘rinishida olib qarash mumkin.

Jamiyatning o‘zgaruvchanlik mohiyati uning barqarorlikka shtishi va unda institusionallashuvning ahamiyatini inkor etmaydi. Bunda institusionallashuv ikki muhim funksiyani bajaradi: a) jamiyatdagi cheksiz ko‘pqirrali insonlararo aloqalar, shaxslararo

munosabatlar va guruhlararo harakatlar jarayonlarini integratsiyalaydi; b) jamiyatdagi munosabatlar ko‘lamini stabillashtiradi.

Ijtimoiy aloqalarda shaxslararo o‘zaro ta’sir. Shaxsning ijtimoiy guruhlardagi ishtiroki: ijtimoiylashuv jarayoni. “Ijtimoiylashuv – integratsiya – institusionallashuv” triadasi jamiyat hayotining sotsiallik ko‘rsatkichi sifatida.

Jamiyat doimiy o‘zgarishlar girdobidagi tirik sotsial borliqdir. Uning ushbu sotsial tabiatni ijtimoiy tizim o‘zgarishlarining aniq trayektoriyalari mavjud emasligini keltirib chiqaradi.

Sotsiallikning eng kichik zarrachasi, “atomi” bo‘lgan individ harakatlaridan boshlab ijtimoiylashuv jarayonlari ijtimoiy munosabatlar murakkablashgani sari institusionallashuv jarayonlari bilan boyib boradi. Buni “shaxslararo munosabatlar - ijtimoiy harakatlar” ko‘rinishida olib qarash mumkin.

Jamiyatning o‘zgaruvchanlik mohiyati uning barqarorlikka shtishi va unda institusionallashuvning ahamiyatini inkor etmaydi. Bunda institusionallashuv ikki muhim funksiyani bajaradi: a) jamiyatdagi cheksiz ko‘pqirrali insonlararo aloqalar, shaxslararo munosabatlar va guruhlararo harakatlar jarayonlarini integratsiyalaydi; b) jamiyatdagi munosabatlar ko‘lamini stabillashtiradi.

3.2. Jamiyat hayotida nisbatan o‘zgarmas statik jarayonlar bilan birga ko‘pqirrali jo‘shqin dinamik jarayonlar almashinib turadi va jamiyat hayotiga tizimli ta’sir doirasini belgilaydi. Jamiyat barqarorligi va beqarorligi ko‘p jihatdan shunga bog‘liq. Shu bilan birga jamiyat hayotini barqarorlashtiruvchi omillarga ijtimoiy ehtiyoj doimo yuqori bo‘ladi.

Jamiyat barqarorligini ta’minlashda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar alohida o‘rin tutadi.

Mehnat va iqtisodiy faoliyatning ommaviy sohasi bo‘lgan iqtisodiyotda ikki xil jarayonlar doimiy ravishda yuz beradi, ular tabiatiga ko‘ra tabiiy va ijtimoiy

turlarga bo‘linadi. *Tabiiy jarayonlar* inson tomonidan uning o‘zaro ta’siri yoki tabiat bilan aloqasi paytida moddiy yoki intellektual mahsulotlarni yaratish uchun mehnat vositalari yordamida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy jarayonlar ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol qilish bilan bog‘liq bo‘lgan odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni tavsiflaydi. Ikkala jarayon ham yaqin hamkorlikda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ular tartibga solish (rejalali, bozor, aralash) vositalari orqali vositalanadilar. Natijada, ma’lum bir boshqaruv darajasida uning parametrlari o‘zgarishi dinamikasini tavsiflovchi ijtimoiy-iqtisodiy tizimni yaratish va ishslash jarayonlari majmui sifatida belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar shakllanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tasnif asosida yotadigan mezonga qarab turlari va turlari bo‘yicha tasniflanadi:

-boshqariladiganlik darajasiga ko‘ra – stixiyali va boshqariladigan jarayonlar;

-tarqalish yo‘nalishi bo‘yicha - tashqi va ichki iqtisodiy jarayonlar; ular doirasida xalqaro integratsiya, kooperatsiya, hamkorlik va b. jarayonlari rivojlanishi mumkin;

-jamiyat hayotiga ta’sir ko‘lami bo‘yicha - makroiqtisodiy, mintaqaviy, mahalliy, mikroiqtisodiy jarayonlar;

-funksional namoyon bo‘lish tuzilishi bo‘yicha - ishlab chiqarish, mehnat, tashkiliy, texnologik, axborot jarayonlari.

3.3. Iqtisodiy va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasidagi munosabatlarning barqarorligi nuqtai nazaridan barqaror va beqaror ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar haqida gapirish mumkin. Birinchisi, *ijtimoiy-iqtisodiy tizimning barqarorligi* va fuqarolarning xulq-atvori, iqtisodiy qarorlarni qabul qilish mexanizmlari

rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Ikkinchisi odatda *inqiroz* paytida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni o‘zgartirish zarurati namoyishi sifatida paydo bo‘ladi.

Jamiyat hayotida ijtimoiy integratsiya va differensiatsiya tushunchalari yaxlitlik va xususiylik mazmunida bo‘lib, integratsiya jarayonlari kengroq miqyosga egaligi tufayli, avvalo ijtimoiy differensiya hodisasidan boshlash maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy differensiatsiya tushunchasi sotsiumning biriga nisbatan turli xil ijtimoiy holatda bo‘lgan guruhlarga bo‘linishini anglatadi. Har qanday jamiyatga xos bshlgan ijtimoiy differensiatsiya sotsial guruhlarning o‘z ijtimoiy maqomi va holatiga mos tarzda tuzilmani anglatadi. Ayniqsa, jamiyatning ijtimoiy stratifikatsiyasida buni yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Ma’lumki, zamonaviy jamiyatlarda stratifikatsiya jarayonlari yangi ijtimoiy qatlamlarning paydo bo‘lishi va ularning siljuvchanligi (mobilligi) bilan ifodalanadi. Umumiylar ma’noda esa stratifikatsiya jarayonlarini tadqiq etish jamiyatdagi qatlamlarning qay darajada shakllanganligi, bu qatlamlardagi ichki va tashqi mobillik, ya’ni bir qatlamdan boshqa qatlamga o‘sib o‘tishi, yoki aksincha, pastroq qatlamga tushib qolishi singari ijtimoiy jarayonlarning holatini diagnostika qilishda muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, stratifikatsiya jarayonlarining ijtimoiy mobillik, umuman ijtimoiy harakatlar bilan bog‘liq jixatlarini tadqiq etish jamiyatdagi harakatchan qatlamlarning holatlarini bilib olish imkonini beradi. Shuningdek, o‘z navbatida, stratifikatsiya jarayonlari dinamikasini o‘rganish orqali jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning tizimli mazmuni va ko‘lamiga nisbatan aniq tashxis qo‘yish mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur bobda sotsial stratifikatsiya hodisasi, shuningdek, ijtimoiy stratifikatsiya tizimlari, ularning belgilari va dinamikasi, stratifikatsiya jarayonlarining jamiyat hayotida aks etishi tahlil etilgan.

3.4. Stratifikatsiya lotincha “stratum” so‘zidan olingan bo‘lib, “strata” (“qatlam”) tushunchasi bilan ifodalanadi. Ijtimoiy tuzilmasiga (strukturasiga) ko‘ra an’anaviy bo‘lgan jamiyatlarda ijtimoiy guruhlar gorizontal joylashadi; tabaqaqlashgan

(stratalashgan) jamiyatlarda esa, bundan farqli o‘laroq, munosabatlarning vertikal yo‘nalish bo‘yicha amalga oshishi kuzatiladi.

Taqqoslash o‘rnida shuni keltirib o‘tish joizki, tabiiy sharoitda yer qobig‘ining geologik stratalari bir-biriga nisbatan ustma-ust joylashgan bo‘lib, tag qismidagi qatlam ustki qatlamning ta’siri (bosimi) ostida bo‘ladi, qatlamlarning o‘zaro chegaralari esa deyarli o‘zgarmas bo‘lib, biridan ikkinchisiga, ayniqsa pastki qatlamlardan yuqorisiga o‘tishi kuzatilmaydi. Jamiyatda esa, bundan farqli ravishda, turli ijtimoiy qatlamlar, guruhlar ichki va o‘zaro tarzda harakatchan bo‘lib, ularning jamiyat ijtimoiy iyerarxiyasidagi (pog‘onalaridagi) joylashuvi va o‘rni, ya’ni ijtimoiy statusi tez-tez o‘zgarib turadi. Binobarin, jamiyat hayotidagi mavjud ijtimoiy stratifikatsiya jarayonlarini tabiiy hodisalarga, xususan yerning tuzilishidagi geologik qatlamlarga nisbatan qiyoslash faqat shartli ravishda amalga oshirilishi mumkin, xolos.

Umumiy ma’noda, sotsial stratifikatsiya jamiyatning turli tabaqa, qatlam, pog‘onalarga bo‘linib ketishi jarayonlarini anglatadi. Ushbu tushunchaga asoslangan nazariyalar ijtimoiy tabaqlanish jarayonlarining mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Shuni ham alohida ta’kidlash zarurki, sotsial stratifikatsiya jarayonlarini tahlil qilgan har bir sotsiolog muqarrar ravishda ijtimoiy tabaqlanishdan so‘ng ijtimoiy tengsizlik muammosini ham hal qilishga urinadi. Xususan, Dyurkgeym an’analariga xos bo‘lgan funksionalizm ta’limoti ijtimoiy tengsizlikni mehnat taqsimotidan keltirib chiqardi; unga ko‘ra, mehnat taqsimotining mexanik va organik shakllari mavjud bo‘lib, birinchisiga odamlar orasidagi jismoniy, jinsiy va yoshga oid farqlar, ikkinchisiga ma’lumot olish, kasb egallah jarayonida vujudga keladigan tafovutlar xosdir.

Har qanday jamiyatni bir qancha mezonlar asosida turli ijtimoiy tabaqlarga bo‘lish mumkin. Shunga mos tarzda har bir davrda muayyan ijtimoiy tengsizlik turlari mavjud bo‘ladi va qayta tiklanib turadi. Shu ma’noda ijtimoiy tabaqlanishning xarakteri hamda uning qaror topish usuli *jamiyatning stratifikatsion tizimi* deb yuritiladi. Dissertatsiyada mavzuga oid adabiyotlar tahlili natijasida ta’kidlanadiki, insoniyat

tarixiga nisbatan stratifikatsiya tizimlarining quyidagi asosiy keltiriladi: a) kasta tizimi; b) quldorlik; c) sinfiy tizim. Bularning ayrimlari tarixda qolib ketgan, ba’zilari hozirgi zamonda ham kuzatiladi.

Sotsial stratifikatsiya jarayonlari hodisasiga qaytadigan bo‘lsak, shunisi aniqliki, u har qanday jamiyatga muayyan darajada xos bo‘lib, sotsial makonning ko‘p o‘lchamli va iyerarxik tarzda tashkil topishini ifoda etadi. Ijtimoiy munosabatlarning serqirra va murakkab tizimida har bir ijtimoiy guruh, qatlam va tabaqa ma’lum bir o‘rinni egallaydi, boshqa sotsial subyektlar bilan turli munosabatlarga kirishadi. Bir ijtimoiy guruh boshqasidan o‘z mol-mulki, daromadi, shuningdek, siyosiy hokimiyatga yaqinligi, umumiyligi ma’noda ijtimoiy nufuziga ko‘ra ustun yoki quyi darajada turadi. Shu ma’noda sotsial qatlam (strata) shartli guruh bo‘lib, uning sotsial statusi (maqomi), boshqa guruhga qaram bo‘lishi yoki unga o‘z hukmini o‘tkaza olishi ma’lum bir ijtimoiy davr va makon chegarasida amal qiladi.

Hozirgi davr stratifikatsiya jarayonlari ijtimoiy tengsizlik, bir guruhning boshqasiga nisbatan yuqori yoki quyi joylashishi, ayni paytda bir guruhdan boshqasiga o‘tishi, ya’ni sotsial mobillik jarayonlari asnosida namoyon bo‘lmoqda. Demokratik, huquqiy davlatlarda barcha fuqarolar, ijtimoiy statusi va kelib chiqishidan qat’iy nazar, yuridik jihatdan teng huquqlidirlar. Biroq real hayotda, tom ma’noda barcha sotsial guruhlar teng bo‘la olmaydilar. Ko‘pchilik sotsiologlar fikricha, aynan tengsizlik harakatga kelish, rivojlanish uchun rag‘bat (stimul) bo‘lib xizmat qiladi. Aytish mumkinki, insoniyat jamiyatining barcha bosqichlari uchun odamlarning va ijtimoiy qatlamlarning o‘zaro tengsizligi xosdir.

Turli davrlar mutafakkirlari ijtimoiy tengsizlikning sabablarini axtarib, uni bartaraf etish rejalarini tuzishgani tarixdan ma’lum. Tengsizlik bir tabaqaning boshqasidan ustunligiga sabab bo‘lishi, bir sinfning boshqasi ustidan hukmronlik o‘rnatishi, hatto turli tabaqalar o‘rtasidagi ziddiyatlarni keltirib chiqarishi bilan birga, raqobatni ham tug‘diradi, bu esa ijtimoiy mavqeい jihatidan yuqoriroq sinfga o‘tish uchun

harakat qilishga rag‘bat uyg‘otadi. Masalaning falsafiy tomonini emas, sotsiologik jihatini tadqiq qilish shuni ko‘rsatadiki, jamiyat individlarning faoliyatini, intilishini rag‘batlantirish, ijtimoiy (iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-axloqiy) yuksalishga erishishlari uchun o‘z a’zolarining faolligini oshirishga tabiiy ehtiyoj sezadi. Buning uchun ayrim kasb-kor va faoliyat yo‘nalishlariga turli imtiyoz va mukofotlar beriladi. Sotsial stratifikatsiya hodisasi va jarayonlari shu kabi ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqadi.

Ijtimoiy integratsiya – sotsiumdagi ijtimoiy tizimlarning o‘zaro hamkorlikka yo‘nalgan yaqinlashish jarayonlaridir. Bunda nisbatan mustaqil bo‘lgan sotsial subyektlar (individlar, sotsial guruhlar) o‘rtasida zarur aloqalar o‘rnatalishi jarayonlari barqaror tus oladi.

3.5. Jamiyat hayotida nisbatan o‘zgarmas statik jarayonlar bilan birga ko‘pqirrali jo‘shqin dinamik jarayonlar almashinib turadi va jamiyat hayotiga tizimli ta’sir doirasini belgilaydi. Jamiyat barqarorligi va beqarorligi ko‘p jihatdan shunga bog‘liq. Shu bilan birga jamiyat hayotini barqarorlashtiruvchi omillarga ijtimoiy ehtiyoj doimo yuqori bo‘ladi.

3.6. Jamiyat barqarorligini ta’minlashda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan birga *sotsial o‘zgarishlar* ham alohida o‘rin tutadi.

Mehnat va iqtisodiy faoliyatning ommaviy sohasi bo‘lgan iqtisodiyotda ikki xil jarayonlar doimiy ravishda yuz beradi, ular tabiatiga ko‘ra tabiiy va ijtimoiy turlarga bo‘linadi. *Tabiiy jarayonlar* inson tomonidan uning o‘zaro ta’siri yoki tabiat bilan aloqasi paytida moddiy yoki intellektual mahsulotlarni yaratish uchun mehnat vositalari yordamida amalga oshiriladi. *Ijtimoiy jarayonlar* ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol qilish bilan bog‘liq bo‘lgan odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni tavsiflaydi. Ikkala jarayon ham yaqin hamkorlikda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ular tartibga solish (rejalali,

bozor, aralash) vositalari orqali vositalanadilar. Natijada, ma'lum bir boshqaruv darajasida uning parametrlari o'zgarishi dinamikasini tavsiflovchi ijtimoiy-iqtisodiy tizimni yaratish va ishslash jarayonlari majmui sifatida belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar shakllanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tasnif asosida yotadigan mezonga qarab turlari va turlari bo'yicha tasniflanadi:

-boshqariladiganlik darajasiga ko'ra – stixiyali va boshqariladigan jarayonlar;

-tarqalish yo'nalishi bo'yicha - tashqi va ichki iqtisodiy jarayonlar; ular doirasida xalqaro integratsiya, kooperatsiya, hamkorlik va b. jarayonlari rivojlanishi mumkin;

-jamiyat hayotiga ta'sir ko'lami bo'yicha - makroiqtisodiy, mintaqaviy, mahalliy, mikroiqtisodiy jarayonlar;

-funksional namoyon bo'lish tuzilishi bo'yicha - ishlab chiqarish, mehnat, tashkiliy, texnologik, axborot jarayonlari.

Iqtisodiy va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtaсидаги munosabatlarning barqarorligi nuqtai nazaridan barqaror va beqaror ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar haqida gapishtirish mumkin. Birinchisi, ***ijtimoiy-iqtisodiy tizimning barqarorligi*** va fuqarolarning xulq-atvori, iqtisodiy qarorlarni qabul qilish mexanizmlari rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Ikkinchisi odatda ***inqiroz*** paytida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni o'zgartirish zarurati namoyishi sifatida paydo bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Inson faolligi va ijtimoiy faoliyatning o'zaro bog'liqligi nimada?
2. Sotsial birliklar qanday vujudga keladi va ularning qanday shakllari mavjud?
3. Sotsiumda madaniyat va qadriyatlarning o'rnini qisqacha ta'riflang

4. Ijtimoiy tabaqlashuvning hozirgi O‘zbekistondagi asosiy tendensiyalari nimalarda namoyon bo‘lmoqda?
5. Jamiyat funksionalligi nimalarda namoyon bo‘ladi?
6. Sotsial o‘zgarishlarni prognozlash mumkinmi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babosov YE.M. Sovremenniy sotsium: xarakter i napravlennost razvitiya / YE.M.Babosov, CH.S.Kirvel, O.A.Romanov. – Minsk: izdatelstvo «chetire chetverti», 2013. – 728 s.
2. Giddens Entoni. Sotsiologiy. – M.: Editorial URSS, 1999. – 704 s. 3. Xarari Y.N. Sapiens. Kratkaya istoriya chelovechestva / Yuval Noy Xarari; [per. s angl. L.Summ]. – M.: Sindbad, 2020. – 512 s.
4. Shtompka P. Sotsiologiy. Analiz sovremennoego obshchestva: Per. s polsk. S. M. Chervonnoy. – M.: Logos, 2005. – 664 s.

Internet resurslari

1. www.lib.socio.msu.ru
2. <http://www.socioline.ru>
3. <http://www.socio.rin.ru>
4. <http://www.sociologos.narod.ru>

4-mavzu: SOTSIOLOGIYADA EMPIRIK TADQIQOT METODLARI

Reja:

1. *Sotsiologiyada tadqiqot strategiyasi va umumiy metodologiyasi muammosi 2. Asosiy tadqiqot metodlari (dala tadqiqotlari, so‘rovlar, tanlash, hujjatli tadqiqot, eksperimentlar)*
3. *Tadqiqotning boshqa turlari: intervyu, kundaliklar, suhbat tahlili va b.*
4. *Tadqiqot natijalari va ularning talqini*

Tayanch iboralar: *Empirik tadqiqotlar, tadqiqotlar strategiyasi, tadqiqotlar metodologiyasi, dala tadqiqotlari, so‘rovlar, eksperiment, intervyu, suhbat uslubi, tadqiqot natijalari interpretatsiyasi*

4.1. Sotsiologik tadqiqotlar strategiyasi avvalo mavjud jamiyat holati bilan bog‘liq. Shu ma’noda zamonaviy axborotlashgan jamiyatning umumiy tavsifiga to‘xtalamiz.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy tizimlar va jarayonlar xususiyatlarini o‘rganishda amaliy tadqiqotlarning o‘rni sezilarlidir. Bugungi kunda axborotlashgan jamiyat bilimlarni va axborotni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va uzatish ustuvor bo‘lgan sotsium sifatida shakllanishga ulgurdi. Bu jamiyat hayotida bilimlar, axborotlar va axborot texnologiyalarining roli va ahamiyati keskin oshib ketganligi bilan izohlanadi.

Albatta, axborotlashgan tizimlar, ya’ni telefon, radio, televideniye, an’anaviy ommaviy axborot vositalari hamda elektron matbuot axborotlashgan jamiyatning muhim tizimlari sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda, ammo Internet tizimi tobora global xususiyat kasb etib borishi ham haqiqatga aylandi.

Umuman olganda, global axborot makonining ijtimoiy voqelik va jarayonga aylanishi bir qator muhim ijtimoiy oqibatlarga olib kelmoqda:

-insonlarning samarali o‘zaro axborot aloqadorligi ta’minlanmoida;

-dunyoviy axborot zahiralariga daxldorlik kshlami oshib bormoqda;
-axborot mahsulotlari va xizmatlariga ehtiyojlarning qondirilishi keng kshlam kasb etmoqda.

Jahonda globalashuv jarayoni va inson tafakkuriga axborot bosimining kuchayishi natijasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi tufayli, insoniyatning global Internet tarmog‘iga qaramlik darajasi ortib bormoqda. Shu sababli, global Internet tarmog‘i jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy qarashlarni shakllantirishda, ular rivojlanish jarayoniga bevosita ta’sir etish va o‘zgartirishda asosiy vositalardan biri bo‘lib qolmoqda. Global Internet tarmog‘ining tobora kengayishi, inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab olganligi va global tarmoqqa aylanishi, mazkur sohani XXI asrda axborot almashinuvining asosiy vositasi sifatida e’tirof etishga asos bo‘ldi. Umuman olganda, sotsiologiya nazariyotchilaridan biri E.Giddens ta’kidlaganidek, “Globalashuv natijasida jahonda axborot tayyorlash, tarqatish, qabul qilish, foydalanishning yangi tartibi shakllandi”¹².

Global Internet tarmog‘i insonlararo aloqa uchun samarali vosita ekanligi, uning inson faoliyatini jadallahuviga sabab bo‘ldi, dunyoning barcha mamlakatlarida Internet tarmog‘ida e’lon qilinayotgan axborotlardan foydalanuvchilar sonining ortishiga va Internet tarmog‘ida saytlarini kengaytirishga bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy ehtiyojni keskin ortishiga, insonning ijtimoiy qiziqishlarini ta’minlovchi virtual axborot makoni sifatida tan olinishiga olib keldi. Shuning uchun ham global tarmoqda turli xil, ya’ni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy mazmundagi ma’lumotlarni o‘zida jamlagan saytlar soni ortib bormoqda. Ta’kidlash lozimki, ushbu saytlarda shaxs faoliyati uchun zarur bo‘lgan, uning ilmiy, kasbiy, ijtimoiy qiziqishlari yuksalishini ta’minlaydigan axborotlar majmuasi mavjuddir. Shuningdek yangi taraqqiyot bosqichi davrida istiqomat qilayotgan shaxsning siyosiy, axloqiy, ma’naviy

¹² Гидденс Э.Социология. Москва, УРСС, 1999, стр.1012.

madaniyatini shakllantiruvchi axborotlar majmui ham internet saytlarda o‘z ifodasini topgan.

Yangi rivojlanish bosqichi sharoitida, global Internet tarmog‘ining jadal rivojlanib borishi natijasida, unda joylashtirilgan axborot saytlar mazmuni ham ma’lum turli yo‘nalishlarga guruhlanish jarayoni kuzatilmoque. Internet tarmog‘ida joylashtirilgan ma’lumotlaridan asosiy foydalanuvchilar yoshlar ekanligi, internet tizimi tomonidan taqdim etilayotgan tezkor aloqa imkoniyatlari, yoshlar saytlarini jadallik bilan rivojlanishiga olib kelmoqda. Bunday kommunikativ imkoniyatlar yoshlarning internet imkoniyatlariga ishonchini oshirdi, yoshlarning turli malaktlarda istiqomat qilayotgan hamkorlari, do‘satlari, hamkasblari, qarindoshlari va izdoshlari bilan sifatli aloqa vositasi rolini bajardi. Shu bilan birgalikda yoshlarni muayyan qismi Internet tarmog‘ida o‘z vaqtlarini o‘tkazishi, ularni ba’zi salbiy axborotlar majmuasi, demokratik jamiyatning rivojlanish tendensiyalariga zid bo‘lgan, buzg‘unchi g‘oyalar mavjud bo‘lgan saytlar ta’siriga tushishiga sabab bo‘lmoqda. Hozirgi, globallashuv va axborot bosimi muttasil oshib borayotgan davrda, ayrim xorij davlatlar hududida zararli ta’sirga ega bo‘lgan yoshlar faoliyatini tarannum etuvchi, ularning tojovuzkorana, bosqinchilik, jinoyatchilik, giyohvandlik, buzg‘unchilik mazmundagi g‘oyasini tashviqot qiluvchi ma’lumotlarga ega bo‘lgan internet saytlarining soni ortib bormoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, hozirda Internet tarmog‘ida ma’naviy buzuqlik va turli g‘arazli maqsadlarni, konstitusion tizimga qarshi, demokratik jamiyat qurish talablarini inkor etishni targ‘ib qiluvchi, tinch osoyishta ijtimoiy, iqtisodiy turmushni buzishga undovchi ishlar bilan shug‘ullanayotgan 7000 dan ortiq internet saytlar faoliyat yuritmoqda. Saytlar bo‘yicha statistik axborotlarni to‘playdigan “Liveinternet.ru” saytining ma’lumotlariga ko‘ra, Odnoklassiniki ijtimoiy tarmog‘ida O‘zbekistonlik foydalanuvchilarning soni 2018 yilning birinchi choragida 707 559 nafar kishini tashkil etgan. “2018 Global Digital” hisoboti,

“We Are Social va Hootsuite” agentliklari ma’lumotlariga ko‘ra, har oy Feysbukda qariyb 1,3 million, Instragramda 890 000 ming faol profillar ro‘yxatga olingan. O‘tgan yil bilan taqqoslaganda, o‘zbek “feysbukchi”lari soni 69%ga oshgan. Feysbukdan foydalanadigan o‘zbeklarning 62% i ushbu tarmoqqa o‘z mobil telefonlari orqali kirgan.

“Similar Web”, saytidan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda “Imo” ilovasi, Android operativ tizimida yuklangan eng mashhur ilova hisoblanadi. “Telegram” ilovasi esa, ikkinchi o‘rinni egallaydi. Biroq “Telegram” “Apple” do‘konida 2018 yil 6 oktabr ilovalar taxtasi-da Instagram va “IMO” dan yuqorida, birinchi o‘rinni egalagan bo‘lsada, O‘zbekistondagi “Google Play” do‘konida doimo yuklash trendida turibdi. “Google” do‘koni ilovalar taxtasida Instagram i Odnoklassniki yetakchilik qilmoqda.¹³

O‘zbekistonda 2018 yilning o‘n oy mobaynida 36,9 foiz internet foydalanuvchilari internetda kiber-hujumga uchragan. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha mamlakat 27-o‘rinni egallaydi. Qattiq disklar, USB-fleshkalardagi viruslar orqali 69,8 foiz foydalanuvchilarga hujum uyushtirilgan.

Ulardan himoyalanish uchun internet tizimida, milliy g‘oya, fuqoralik jamiyatni maqsadi va mazmunini, yangi rivojlanish davrida mamlakatimizda erishilgan, ijtimoiy turmushda, iqtisodiy taraqqiyotda, yoshlar kelajagini ta’minlovchi yutuqlarni targ‘ib qiluvchi milliy saytlarni shakllantirish, rivojlantirish, ularga yoshlarni jalb etish zaruriyati mavjuddir.

Globallashuv jarayonining kengayishi, bozor iqtisodiyoti munosobatlarining chuqurlashuvi sharoitida jamiyat a’zolarining Internet tarmog‘i saytlaridan axborot olish hajmi ortib bormoqda. Bunday vaziyat, internetda milliy segmentni rivojlantirish, mazmunan boyitish, uni yanada takomillashtirish uchun faoliyat yuritish, veb-saytlarni mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohatlar

¹³Ўзбекистонда интернет (инфографика). file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram%20Desktop_UzAnalytics.html

mazmuniga mos suratdagi axborotlar majmuasi bilan to‘ldirish masalasi muhim ekanligini ko‘rsatadi.

4.2. Ma’lumki, sotsiolog aholi o‘rtasida qandaydir so‘rov o‘tkazadigan tor doiradagi mutaxassis emas, balki sotsial tafakkurga ega bo‘lgan, jamiyat va uni tashkil etuvchi har bir sotsial subyekt, ya’ni alohida olingan shaxs, sotsial guruhlar va sotsium haqida chuqur nazariy bilimlarga ega bo‘lgan, odamlar bilan ishlash amaliy ko‘nikmalariga ega inson va ijtimoiy jarayonlarni prognoz qilish salohiyati bo‘lgan universal mutaxassisidir.

Sotsiolog avvalo ijtimoiy tizimlar va jarayonlarni makrosotsiologik miqyosda idrok eta olishi zarur. Shu ma’noda u sotsiologiya asoschilaridan tortib to zamonaviy sotsiologik konsepsiyalargacha bo‘lgan mualliflar va jamiyatshunoslar asarlarini chuqur egallashi zarur.

4.3. Ijtimoiy tizimlar, jarayonlar va munosabatlarni o‘rganishda amaliy (empirik) sotsiologik tadqiqotlar sotsiolog uchun sotsial dalil (fakt) olish imkonini beruvchi vosita, xolos. Aynan ana shu sotsial fakt sotsiolog uchun ilmiy xulosalar uchun isbotlovchi dalil bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy xulosalar esa sotsiolog uchun sotsial reallikka aniq tashxis qo‘yish bilan birga, voqelik rivojiga oid prognozni amalga oshirish imkonini beradi. Xullas, sotsiologning tadqiqot olib borish jarayoni “*Nazariy umumlashma - gipoteza (taxmin) - sotsial fakt – tahlil - ilmiy xulosa - prognoz*” ko‘rinishini oladi. Albatta, o‘z-o‘zidan ravshanki, jamiyatni ijtimoiy institut sifatida empirik o‘rganishning murakkabligi isbot talab etmaydi. Sotsiolog tadiiötning miqdoriy uslublaridan tortib sifatiy uslublargacha bo‘lgan barcha vositalardan foydalanadi. Xususan, ijtimoiy jarayonlar, aytaylik sotsial mobillik, ichki va tashqi migratsiya, urbanizatsiya kabi ommaviy va stixiyali jarayonlarni o‘rganishda turli xil statistik ma’lumotlarning o‘zi yetarli emas, buning uchun empirik sotsiologik tadqiqotlar uslublari (so‘rov; anketalashtirish; intervyu; fokus-

guruh; axborotni izohlash va h.k.) ham ishga solinadi. Olingan ma'lumotlarning haqqoniyligi chiqariladigan ilmiy xulosalarni asoslashga xizmat qiladi.

4.4. Ijtimoiy tizimlar va jarayonlarni tizimli tahlil qilishning o'z uslublari mavjud bo'lib, ular avvalo mazkur jarayonlarni tasniflash (klassifikatsiya qilish), ularni guruhash va xillarga ajratish (tipologizatsiyalash) kabilarda ifodalanadi. Bu kabi uslublar ijtimoiy tizimlarni aniq bir toifalarga ajratish imkonini berishi bilan birga, ularni ahamiyatliligi jihatidan tartiblashni ta'minlaydi.

Bugungi kunda sotsial fanlarda ijtimoiy tizimlar va jarayonlarni tahlil qilishda konkretlashtirish va prognozlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aynan prognozlashtirish natijasida bu kabi keng miqyosli jarayonlarni o'z navbatida modellashtirish ham, ma'lum sohalarini ijtimoiy eksperiment tariqasida sinovdan o'tkazish ham mumkin bo'ladi. Quyida ijtimoiy soha misolida ijtimoiy tizimlar va jarayonlarni aytib o'tilgan uslublar asosida tahlil qilish, prognozlash va loyihalash mexanizmlarini ko'rib chiqamiz.

Ijtimoiy soha - bu jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy guruhlarning, shu jumladan sinflarning (tadbirkorlar, xizmatchilar va b.), shuningdek aholining kasbiy va ijtimoiy-demografik qatlamlarining ta'sir doirasini ifodalovchi sohadir. Shu bilan birga mazkur soha ishlab chiqarish faoliyati shartlari; moddiy farovonlik darajasi; sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy ta'minot muammolarini hal qilish; har bir inson tomonidan mehnatga bo'lgan huquqini amalga oshirish, shuningdek jamiyatda yaratilgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni taqsimlash va iste'mol qilishda ijtimoiy adolatga rioya qilish; jamiyatning boy va kambag'allarga ijtimoiy tabaqalanishi natijasida yuzaga keladigan ziddiyatlarni hal qilish; aholining ayrim qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni ham qamrab oladi.

Albatta, ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqadigan ijtimoiy xususiyatlari munosabatlar turli tomonlar harakatlarining ko'p yo'nalishli (vektorli) kuchlari

qo'shilishining natijasidir. Shu ma'noda mazkur munosabatlar va jarayonlar makoni *sotsial makrosistema* xususiyatiga ega bo'ladi. Bunda ijtimoiy jarayonlar ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarning uch xil shaklini prognozlashtirish mumkin:

- a) ayrim ijtimoiy guruhlar o'z ijtimoiy manfaatlarini qondirishga erisha olmaydilar va ma'lum vaqtgacha bunga chidashga majbur bo'ladilar, ammo ular o'z pozitsiyalarini o'zgartirish uchun kuch to'playdilar;
- b) boshqa bir ijtimoiy guruhlar hayoti davomida kutgan o'z manfaatlarining sotsium maqsadlariga muvofiq emasligini anglab, o'z ehtiyojlarini qondirilmasligi ehtimoli bilan kelishishga majbur bo'ladilar;
- c) makrosistemada ijtimoiy uyg'unlik holati sodir bo'ladi, ya'ni IISJning prognozlashtirilgan rivojlanishiga nisbatan qarshiliklar bo'lmaydi.

Yuqoridagi sabablarga ko'ra, IISJ ning rivojlanishi odatda davlat va uning institutlarining ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga aralashuviga olib kelmaydi.

IISM fundamental ijtimoiy kutishlarning zamoni va makonidagi o'ziga xos spiral harakatlardir. Ma'lumki, *fundamental ijtimoiy kutishlarga* ijtimoiyadolat, shaxsning teng qobiliyatları va iqtisodiy imkoniyatlar tengligi, barcha subyektlarning mulkiy va rasmiy maqomidan qat'i nazar qonun oldidagi tengligi tenglik kabi qadriyatlar kiradi.

Umuman olganda, IISM evolyusiya va involyusianing birgalikdagi mavjud bo'lishi va bir-birini to'ldirishidir. *Evolyusiya* - bu obyekt va jarayonning o'zgarishidir. *Involyusiya* - bu turg'unlik, stagnatsiya (qotib qolish), obyekt yoki jarayonning ba'zi fazilatlarining yomonlashishidir.

Yuqoridagilar asosida ijtimoiy jarayonlarning davomiyligining quyidagi ssenariylar asosidagi umumiyl prognozini keltirish mumkin:

I. Ijtimoiy nizolarning yetilishinii ko‘rsatuvchi jarayonlar quyidagi oqibatlarga olib keladi:

- sotsial xotira ilgari erishilgan, ammo keyin darajasi pasaygan ijtimoiy kutishlarning qondirilishi darajalarini ertami-kechmi dolzarb qondirilmagan ehtiyojlar toifasiga qaytaradi;
- hokimiyatni qoniqmaslik va norozilik darajasini pasaytirishga majburlaydi;
- kuchlarning vaqtinchalik muvozanatini buzadi;
- tengkuchli harakatdagi sotsial kuchlarni norozilik bildirayotgan ijtimoiy subyektlar foydasiga yo‘naltiradi.

II. Yuqoridagi natijalar yuz bermagan taqdirda:

- sotsial inqiroz yetiladi;
- ijtimoiy portlash yuz beradi.

Voqealarning ushbu spenariylar asosida yuz berishining to‘g‘riliqi butun insoniyat tarixi asnosida o‘z tasdig‘ini topgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta’kidlash mumkinki, IISJ hayot siklining dastlabki bosqichlarining yashirin tabiatini quyidagi bosqichlarda ifodolanadi: a) paydo bo‘lishi, ya’ni jarayonning boshlang‘ich davri; b) shakllanishi, jarayonning asosiy xususiyatlarining o‘z ifodasini topishi; c) jarayonning tezlashishi.

Foydalanimanligi adabiyotlar

1. Babosov YE.M. Sovremenniy sotsium: xarakter i napravlennost razvitiya / YE.M.Babosov, CH.S.Kirvel, O.A.Romanov. – Minsk: izdatelstvo «chetire chetverti», 2013. – 728 s.
2. Giddens Entoni. Sotsiologiy. – M.: Editorial URSS, 1999. – 704 s. 3. Xarari Y.N. Sapiens. Kratkaya istoriya chelovechestva / Yuval Noy Xarari; [per. s angl. L.Summ]. – M.: Sindbad, 2020. – 512 s.
4. Shtompka P. Sotsiologiy. Analiz sovremennoego obshchestva: Per. s polsk. S. M. Chervonnoy. – M.: Logos, 2005. – 664 s.

Internet resurslari

1. www.lib.socio.msu.ru
2. <http://www.socioline.ru>
3. <http://www.socio.rin.ru>
4. <http://www.sociologos.narod.ru>

Nazorat savollari

1. *Empirik sotsiologik tadqiqotlar strategiyasi qanday belgilanadi?*
2. *Empirik sotsiologik tadqiqotlar uslublarining asosiy turlarini sanab bering*
3. *O‘z tadqiqot faoliyatiningda empirik sotsiologik tadqiqotlarning qaysi uslublaridan foydalangansiz?*

4. Empirik sotsiologik tadqiqotlar natijalaridan foydalanish qanday ahamiyatga ega?

5-MAVZU: SOTSILOGIK NAZARIYA VA METODOLOGIYALAR ISTIQBOLLARI

Reja:

1. *Sotsial faoliyat murakkabligi turli nazariy yondashuvlar mavjudligining omili sifatida*
2. *Zamonaviy sotsiologyaning asosiy nazariy yondashuvlari: funksionalizm, strukturalizm, simvolik intereksiyonizm va b.*
3. *Dunyoning yangi manzarasi va uni izohlashda sotsiologyaning o'rni*

Tayanch iboralar: *Sotsiologiyada nazariyalar va metodologiyalar, funksionalizm, strukturalizm, simvolik interaksionizm, sotsial dunyo va uning yangi manzarasi, sotsial prognozlashtirish*

5.1. Bugungi kunda jamiyat universal va murakkab tuzilgan hamda dinamik tarzda rivojlanayotgan yaxlit sotsial tizim sifatida ko'plab o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Aytish mumkinki, XXI asr uchinchi o'n yilligiga qadam qo'yayotgan har qanday jamiyat tizimli beqarorlikka duch kelmoqda. Barcha sotsial tizimlar, ya'ni kichik oiladan tortib to insoniyatgacha, bugungi kunda o'zining kelajagini ham xavotir, ham umid bilan kutib olishga intiladi. Sotsial tizimlarning barcha masshtabdagi turlari – mikrotizimlar (alohida individlar, kichik sotsial guruhlar: oila, mahalla), mezotizimlar (mehnat jamoalari, kichik biznes va b.), makrotizimlar (jamiyatning yirik tizimosti turlari: iqtisod, siyosat, sotsial soha, madaniyat), metasistemalar (alohida jamiyat, davlat) va megasistema (insoniyat, global hamjamiyat) hozirgi bosqichdagi rivojlanishda o'z o'rmini topishga haqlidir, zero

ularning barchasi doimo harakatda va birgalikda sotsial faoliyatning cheksiz xilmashilligini tashkil etadi.

Yuqorida bayon qilingan sotsial faoliyat murakkabligi turli nazariy yondashuvlarni ham keltirib chiqaradi.

5.2.Bugungi kunda mavjud bo‘lgan asosiy sotsiologik yondashuvlar (funksionalizm, strukturalizm, fenomenologik sotsiologiya, simvolik intereksionizm va b.) o‘z yo‘nalishlarida tizimli yo‘nalishlarni aks ettiradi. Fanlar tarixidagi tizimli yondashuvni (“tizim” tushunchasidan kelib chiqadigan paradigma) umumlashtirar ekan, belorusiyalik sotsiolog olimlar YE.M.Babosov, CH.S.Kirvel va O.A.Romanovlar tizimlilik g‘oyasining fandagi quyidagi tadrijiy bosqichlari va ko‘rinishlarini keltirib o‘tadilar: -o‘rta asrlar Yevropasida Foma Akvinskiyning Xudo va inson borlig‘ining teologik talqini;

-Yangi davrdagi N.Kopernikning Quyosh tizimi haqidagi tizimli konsepsiysi, K.Linneyning tirik mavjudotlar dunyosining tizimliligi izohi;

-keyingi davrda P.Golbaxning tabiat tizimi falsafiy talqini, J.Millning mantiq tizimi konsepsiysi, CH.Darvinnning biologik evolyusiya tizimi haqidagi konsepsiysi

-ilm va fan taraqqiyoti gurkiran davrda D. Mendeleyeyevning elementlarning davriylik tizimi haqidagi qarashlari, ijtimoiy fanlarda esa K.Marksning kapitalizm tuzumining tahlilini o‘z ichiga olgan tizimli metodologiyasi;

-XX asr boshlariga kelib A.Bogdanovning fanni umumiylar tarzda tizimlashtirishga qaratilgan konsepsiysi, P.Teyyar de Sharden va V.Vernadskiyning noosfera tizimlariga oid ta’limotlari, T.Kotarbinskiyning tizimli prakseologiya haqidagi qarashlari, keyinchalik L.Bertalanfinning “tizimlar umumiylar nazariyasini” yaratish dasturi

- XX asr 10-20 yillarda fizika sohasida yuz bergan olamshumul kashfiyotlar va tizimli metodologiya rivojiga katta hissa qo‘shgan M.Plank, N.Bor, V.Geyzenberg va

boshqalarning kvant-mexanik tizimlar haqidagi nazariyalari, ayniqsa A.Eynshteynning nisbiylik nazariyasining tizimli tasavvurlari va nihoyat I.Prigojinning sinergetika haqidagi konsepsiatsiyalarini keltiradilar. Bu kabi tizimli qarashlar turli tabiatga ega bo‘lgan tizimlar – tabiiy, kimyoviy, biologik, texnik, iqtisodiy va sotsial tizimlardagi o‘zini o‘zi tartiblovchi mexanizmlarni ohib berishga xizmat qilgan edi. Sotsial fanlar sohasida tizimli metodologiyani tadbiq etish o‘tgan asrda T.Parsonsning “Sotsial tizimlar haqida”, N.Lumanning “Umumiy nazariya ocherki”, I.Vallerstaynning “Dunyoviy tizimlar va hozirgi zamondagi vaziyat tahlili” asarlarida o‘z ifodasini topgan edi¹⁴.

Tizimli metodologiyani qo‘llash zarurligi XXI asr birinchi o‘n yilligida, aniqrog‘i 2008 yilda boshlangan ulkan dunyoviy moliyaviy va iqtisodiy tizimli inqiroz davrida insoniyat uchun katta dalil bo‘lgan bo‘ldi, zero bu inqiroz 200 dan ortiq davlatlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi, faqatgina jahon iqtisodiga chuqr intergatsiyalashmagan davlatlargini bundan chetraqda qolishdi, xususan Xitoy o‘zining alohida siyosati tufayli. Ammo 2019 yil oxirida boshlangan koronovirus pandemiyasining o‘chog‘i aynan Xitoy bo‘ldi va bu ofat qisqa vaqt ichida dunyoning mutlaq ko‘p qismini egalladi va bu global universal supertizimga aylangan insoniyat uchun yana bir sinov bo‘lmoqda.

5.3. Dunyoning bugungi manzarasi, xususan uning sotsial sohasi ijtimoiy fanlardan, xususan sotsiologiyadan muammo maydonini aniqlab olishni talab etmoqda. Bugungi kunda dunyoning manzarasini ilmiy tadqiq etishda metodologiyalar o‘zgarmoqda. Barcha fanlar, shu jumladan sotsiologiya ham o‘zi bosib o‘tgan yo‘l nuqtai nazaridan insoniyatni o‘ylantirayotgan global muammolarga o‘z javobini berishga urinmoqda.

Bugungi kunda oxirgi uch asrda “g‘olibona” odimlagan bizning texnogeniste’mol sivilizatsiyamiz bugungi kunda katta tanlov oldida turibdi. U

¹⁴ Қаранг: Бабосов Е.М. Современный социум: характер и направленность развития / Е.М.Бабосов, Ч.С.Кирвель, О.А.Романов. – Минск: издательство «Четыре четверти», 2013. – с. 8-9.

o‘zining “o‘sish chegaralarini” aniq ko‘rishi kerak, u tarixan o‘z qobiliyatsizligini sezayaptimi? U davr da’vatlarini anglayaptimi? O‘zi tug‘dirgan global muammolarni bartaraf eta oladimi?

Bir so‘z bilan aytganda, bugungi globallashgan dunyoda sotsial fanlar, shu jumladan sotsiologiya fani o‘z o‘rnini topishi zarur. Bunda u yangi tadqiqot imkoniyatlarini topa bilishi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babosov YE.M. Sovremenniy sotsium: xarakter i napravlennost razvitiya / YE.M.Babosov, CH.S.Kirvel, O.A.Romanov. – Minsk: izdatelstvo «chetire chetverti», 2013. – 728 s.
2. Giddens Entoni. SotsiologiY. – M.: Editorial URSS, 1999. – 704 s. 3. Xarari Y.N. Sapiens. Kratkaya istoriya chelovechestva / Yuval Noy Xarari; [per. s angl. L.Summ]. – M.: Sindbad, 2020. – 512 s.
4. Shtompka P. SotsiologiY. Analiz sovremennoogo obshchestva: Per. s polsk. S. M. Chervonnoy. – M.: Logos, 2005. – 664 s.

Internet resurslari

1. www.lib.socio.msu.ru
2. <http://www.socioline.ru>
3. <http://www.socio.rin.ru>
4. <http://www.sociologos.narod.ru>

Nazorat savollari

- 1.Sotsiologiyada metodologiyalar va asosiy konsepsiyalarning o‘zgarishi sabablari nimada deb o‘ylaysiz?
- 2.Zamonaviy sotsiologiyadagi mavjud asosiy konsepsiyalarni sanab ko‘rsating

3. Sotsial dunyo manzarasi deganda nimani tushunasiz?

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-Seminar

Mavzu: Zamonaviy sotsiologiyada nazariya va metodologiya muammolari: tarixiylik va tizimlilik

Reja:

1. *Sotsiologiyada paradigmalar almashinuvi*
2. *Sotsiologiyada “Inson jamiyati tarixi” tushunchasi*
3. *Sotsium: tuzilishi va dinamikasi*

Seminar mashg‘ulotini olib borish tartibi: Tinglovchilardan ixtiyoriy ravishda kichik guruhlar shakllantiriladi, mavzu buyicha asosiy tushunchalarni javdal va sxemalari shakllantiriladi. Tinglovchilar o‘zлari bajargan amallarini individual yoki guruhiy tarzda izohlab,himoya etadilar.

Seminar mashg‘ulotini olib borishda qo‘llaniladigan metod: bahs va munozara metodi

“BAHS-MUNOZARA” METODI

Metod ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan muayyan vaqt oralig‘i va qat’iy qoidalarga muvofiq tashkil etiladigan og‘zaki bahs bo‘lib, tinglovchilarda o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha erkin, asosli fikrlarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quv mashg‘ulotlarida bahsmunozaradan foydalanishda mavzuga doir ma’lum masalalar hal qilinadi.

(Izoh: -bir tinglovchiga ikki marta so‘zga chiqishga ruxsat etilmaydi; o‘qituvchi tinglovchilarning mavzudan chetga chiqmasliklarini nazorat qilib boradi)

Metodni qo‘llashda quyidagi tartibda ish ko‘riladi:

Баҳс-мунозара учун танланган мавзу тингловчиларга олдиндан маълум қилинади

Жараён ўқитувчи томонидан бошқарилиб борилади

Тингловчилар индивидуал тарзда ёки кичик гурӯҳ номидан баҳс юритилаётган масала бўйича шахсий мулоҳазаларини баён қиласди

Баҳсда масаланинг моҳияти бўйича бир-бирига муқобил фикрлар илгари сурилади

сурилади

Ечим бўйича асосий фикрни баён этувчиларга 10 дақиқа, кўшимча қилувчиларга эса 5 дақиқадан ваqt берилади

Ўқитувчи томонидан баҳс-мунозара юзасидан якуний хулоса билдирилади

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Babosov YE.M. Sovremenniy sotsium: xarakter i napravlennost razvitiya / YE.M.Babosov, CH.S.Kirvel, O.A.Romanov. – Minsk: izdatelstvo «chetire chetverti», 2013. – 728 s.
2. Giddens Entoni. Sotsiologiy. – M.: Editorial URSS, 1999. – 704 s. 3. Xarari Y.N. Sapiens. Kratkaya istoriya chelovechestva / Yuval Noy Xarari; [per. s angl. L.Summ]. – M.: Sindbad, 2020. – 512 s.
4. Shtompka P. Sotsiologiy. Analiz sovremennoego obshchestva: Per. s polsk. S.

2-Seminar

Mavzu: Zamonaviy sotsiologik nazariyalardagi asosiy tushunchalar:

Reja:

1. *Sotsial struktura va uning tarkibiy elementlari (sotsial institutlar, hokimiyat strukturasi va b.)*
2. *Sotsial harakat va uning asosiy shakllari (urbanizatsiya, sotsial mobillik, sotsial harakatlar (revolyusiyalar), sotsial o‘zgarishlar, globalizatsiya)*
3. Sotsial aloqalar (shaxs va sotsializatsiya, madaniyat va jamiyat, sotsial o‘zaro harakatlar va kundalik hayot, konformlik va deviantlik, gender va oila) sotsiologiyaning muhim tushunchasi sifatida
4. *Konflikt va konsensus jamiyat mavjudligining realligi sifatida*

Seminar mashg‘ulotini olib borish tartibi: Tinglovchilardan ixtiyoriy ravishda 4 ta kichik guruhlar shakllantiriladi, har bir guruhga bitta vaziyatning 4 jihat bo‘yicha alohida-alohida topshiriq beriladi: 1) vaziyatning salbiy jihatlari; 2) vaziyatning ijobjiy jihatlari; 3) risklar; 4) imkoniyatlar. Har bir guruh topshiriqni ma’lum muddatda bajaradi va har bir guruh o‘z taqdimotlarini ketma ket taqdim etadi. Taqdimot tekst, javdal va sxemalar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Har bir guruhning vaziyatning biror jihatini oolib berishiga qarab umumi yechim topiladi.

Seminar mashg‘ulotini olib borishda qo‘llaniladigan metod: SWOT tahlil

Foydalanilgan uchun adabiyotlar:

1. Babosov YE.M. Sovremenniy sotsium: xarakter i napravленность развития / YE.M.Babosov, CH.S.Kirvel, O.A.Romanov. – Minsk: izdatelstvo «chetire chetverti», 2013. – 728 s.
2. Giddens Entoni. Sotsiologiy. – M.: Editorial URSS, 1999. – 704 s.
3. Xarari Y.N. Sapiens. Kratkaya istoriya chelovechestva / Yuval Noy Xarari; [per. s angl. L.Summ]. – M.: Sindbad, 2020. – 512 s.
4. Shtompka P. Sotsiologiy. Analiz sovremennoego obshestva: Per. s polsk. S. M. Chervonnoy. – M.: Logos, 2005. – 664 s.

3- Seminar. Jamiyat sotsiologiya predmeti sifatida

Reja:

- 1.Inson faolligi sotsial kontekst sifatida
- 2.Sotsial birliklar
- 3.Madaniyat, qadriyatlar, globalizatsiya, ijtimoiy fikr jamiyat hayotining determinantlari sifatida
- 4.Sotsial stratifikatsiya E.Giddens va P.Shtompka talqinida: qiyosiy tahlil
- 5.Jamiyat funksionalligi (sotsializatsiya, sotsial nazorat va institusionalizatsiya)
- 6.Sotsial o‘zgarishlar (sotsial vaqt, sotsial inqilob, globalizatsiya)

Seminar mashg‘ulotini olib borish tartibi: Tinglovchilardan ixtiyoriy ravishda 3 ta kichik guruhlar shakllantiriladi, shulardan bitta guruhga muammoli holat va muayyan masalani hal yechish topshirig‘i beriladi, ma’lum vaqtdan so‘ng taqdimot imkoniyati beriladi, ikkinchi guruh ushbu guruh tayyorgarligi va taqdimotini nazorat qilib boradi va baholaydi, uchinchi guruh esa nazoratchi vazifasini bajaradi. Darsning keyingi qismida guruhlar o‘zaro o‘rinlarini almashtirishlari mumukin.

Taqdimot tekst, javdal va sxemalar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Har bir guruhning vaziyatning biror jihatini ochib berishiga qarab umumiyligida yechim topiladi.

Seminar mashg‘ulotini olib borishda qo‘llaniladigan metod: Keys stadi uslubi.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Babosov YE.M. Sovremenniy sotsium: xarakter i napravlennost razvitiya / YE.M.Babosov, CH.S.Kirvel, O.A.Romanov. – Minsk: izdatelstvo «chetire chetverti», 2013. – 728 s.

2. Giddens Entoni. SotsiologiY. – M.: Editorial URSS, 1999. – 704 s. 3. Xarari Y.N. Sapiens. Kratkaya istoriya chelovechestva / Yuval Noy Xarari; [per. s angl. L.Summ]. – M.: Sindbad, 2020. – 512 s.
4. Shtompka P. SotsiologiY. Analiz sovremennoogo obshchestva: Per. s polsk. S. M. Chervonnoy. – M.: Logos, 2005. – 664 s.

4- Seminar.

Mavzu: Sotsiologiyada empirik tadqiqot metodlari

Reja:

1. *Sotsiologiyada tadqiqot strategiyasi va umumiy metodologiyasi muammosi 2. Asosiy tadqiqot metodlari (dala tadqiqotlari, so‘rovlar, tanlash, hujjatli tadqiqot, eksperimentlar)*
3. *Tadqiqotning boshqa turlari: intervyu, kundaliklar, suhbat tahlili va b.*
4. *Tadqiqot natijalarini ularning talqini*

Seminar mashg‘ulotini olib borish tartibi: Tinglovchilardan ixtiyoriy ravishda empirik tadqiqot tayyorlash va o‘tkazishning 3 ta bosqichiga mos tarzda 3 ta kichik guruhlar shakllantiriladi. Bunda: birinchi guruh sotsiologik tadqiqot hujjatlarini tayyorlash bo‘yicha nazariyotchi sotsiologlar rolini bajarishi, ikkinchi guruh dala tadqiqotlarini bajaruvchi amaliyotchi sotsiologlar rolini bajarishi, uchinchi guruh esa to‘plangan empirik ma’lumotlarni tahlil etuvchi analitik (tahlilchi) sotsiologlar rolini bajarishi talab etiladi.

Mashg‘ulot so‘ngida o‘qituvchi tomonidan har bir guruhning faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi.

Seminar mashg‘ulotini olib borishda qo‘llaniladigan metod: Kichik guruhlarda ishlash.

5-Seminar

Mavzu: Sotsiologik nazariya va metodologiyalar istiqbollari

Reja:

- 1. Sotsial faoliyat murakkabligi turli nazariy yondashuvlar mavjudligining omili sifatida*
- 2. Zamonaviy sotsiologiyaning asosiy nazariy yondashuvlari: funksionalizm, strukturalizm, simvolik intereksiyonizm va b.*
- 3. Dunyoning yangi manzarasi va uni izohlashda sotsiologiyaning o'rni*

Seminar mashg'ulotini olib borish tartibi: Tinglovchilardan ixtiyoriy ravishda kichik guruqlar shakllantiriladi, mavzu buyicha asosiy tushunchalarni javdal va sxemalari shakllantiriladi. Tinglovchilar o'zлari bajargan amallarini individual yoki guruhiy tarzda izohlab,himoya etadilar.

Seminar mashg'ulotini olib borishda qo'llaniladigan metod: Bahs va munozara metodi

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Babosov YE.M. Sovremenniy sotsium: xarakter i napravlennost razvitiya / YE.M.Babosov, CH.S.Kirvel, O.A.Romanov. – Minsk: izdatelstvo «chetire chetverti», 2013. – 728 s.
2. Giddens Entoni. SotsiologiY. – M.: Editorial URSS, 1999. – 704 s. 3. Xarari Y.N. Sapiens. Kratkaya istoriya chelovechestva / Yuval Noy Xarari; [per. s angl. L.Summ]. – M.: Sindbad, 2020. – 512 s.
4. Shtompka P. SotsiologiY. Analiz sovremennoego obshestva: Per. s polsk. S. M. Chervonnoy. – M.: Logos, 2005. – 664 s.

V. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulni xususiyatlarini hisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- meyoriy xujjatlardan, o‘quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha modul bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan modul bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish.

Mustaqil ta’lim mavzulari

1. Zamonaviy sotsiologiyada metodologiya muammolari
2. Sotsiologiyada paradigmalar almashinushi
3. Inson jamiyat tarixi: tushuncha va mohiyat
4. Sotsium, jamiyat va ijtimoiy tizimlar: o‘zaro bog‘liqligi va farqlar
5. Sotsial struktura va uning tarkibiy elementlari
6. Sotsial harakat va uning asosiy shakllari
7. Sotsial aloqalar
8. Konflikt va konsensus jamiyat mavjudligining shakli sifatida
9. Inson faolligi sotsial kontekst sifatida

10. Sotsial birliklar
11. Sotsial stratifikatsiya: asosiy mohiyati va tendensiyalari
12. Jamiyat funksionalligi va uning asosiy tendensiyalari
13. Sotsial o‘zgarishlar va uning shakllari
14. Empirik tadqiqotlar: asosiy metodlar
15. Empirik tadqiqotlarni o‘tkazish va olingan ma’lumotlarni tahlil qilish uslublari

VI. KEYSALAR BANKI

Mini keys 1.

Ijodiy jamoada ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish.

“Vaziyat: Oliy ta’lim muassasasida o‘qituvchilar orasida ilmiy salohiyat darajasi past, atigi 20% ni tashkil etadi. OTM rahbariyati barcha fakultetlar, shu jumladan Ijtimoiy fanlar fakulteti jamoasi oldiga 2 yilda ilmiy salohiyatni kamida 50 foizga ko‘tarish vazifasini qo‘ydi.

Real holat: Fakultetda 72 ta o‘qituvchi bo‘lib, shulardan 45 o‘qituvchi ilmiy tadqiqot mavzulari ustida ish olib bormayapti, faqatgina 10 kishi o‘z dissertatsiyalarini yakunlash imkoniyatlariga ega. Fakultetdagi kafedralarda grant loyihalari tayyorlanisha yaxshi emas, ilmiy patentlar olinmagan.

Maqsad: Qo‘yilgan vazifani bajarish bo‘yicha asoslangan dastur ishlab chiqish”.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- a) Muammoni hal etish bo‘yicha ilmiy farazlar bilan tanishish
- b) Ilmiy tadqiqot ishlariga salbiy ta’sir qiluvchi va to‘sqinlinlik qiluvchi omillarni aniqlash
- c) Ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish dasturini ishlab chiqish

Mini keys 2.

Mehnat jamoalarida yoshlarni ish bilan ta’minlashni yaxshilash.

Vaziyat: “Oliy ta’lim muassasa bitiruvchilarini ishga joylashtirish natijalari olindi, bu sohadagi ko‘rsatkich yaxshi emas. Xususan, bitiruvchilarning 20 foizga yaqini (480 yoshlar) ish o‘rinlariga ega emas. Vazirlik tomonidan OTM rahbariyatiga 3 oy ichida barcha bitiruvchilarni ish bilan ta’minlab, amalga oshirilgan ishlar natijasi bo‘yicha vazirlikka axborot kiritish vazifasi qo‘yildi.

Real holat: Bitiruvchilarning ma’lum bir qismi viloyatlarga, ayniqsa qishloqlardagi maktablarga ishga bormay, Toshkent shahrida, qolaversa viloyat markazlarida qolib, mutaxassisliklari bo‘yicha ishlamayapti. Muammoning yana bir jihatni ayrim viloyat va tuman hokimiyatlari tomonidan yosh mutaxassislar uchun ish sharoitlari hamda ijtimoiy muammolarini (uy-joy bilan ta’minalash, transport xarajatlari va b.) hal etishga e’tibor qaratmayotganliklari bilan bog‘liq.

Maqsad: Qo‘yilgan vazifani bajarish bo‘yicha asoslangan dastur ishlab chiqish”.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- a) Yosh mutaxassislarni ish o‘rinlari bilan ta’minalashga oid holatni o‘rganib chiqish
- b) OTM bitiruvchilarining ishga joylashishlariga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish
- c) Yosh mutaxassislar o‘rtasida mehnat qo‘nimsizligining oldini olishga qaratilgan loyihani ishlab chiqish

VII. GLOSSARIY

Ingлизча	Русча	О‘zbekcha	Mazmuni
----------	-------	-----------	---------

Agencies of socialization	Agenti sotsializatsii	Ijtimoiylashuv agentlari	<i>Ijtimoiylashuvning eng muhim jarayonlari kechadigan guruhlar yoki sotsial kontekstlar (muhit)</i>
Anthropology	Antropologiya	Antropologiya	An'anaviy madaniyatlar va inson evolyusiyasini o'rganuvchi va shu jihatdan sotsiologiyaga yaqin bo'lgan fan
Stateless society	Besgosudarstvennoye obshestvo	Davlatsiz jamiyatlar	Boshqaruv institutlari mavjud bo'lмаган jamiyatlar
Primary group	Pervichnaya gruppa	Birlamchi gurux	Bir-birlari bilan shaxsiy o'zaro munosabata bo'lgan individlar guruhi
Secondary group	Vtorichnaya gruppa	Ikkilamchi gurux	Bir-birlari bilan shaxsiy darajada yaqin tanish bo'lмаган individlar guruhi
Welfare state	Gosudarstvo vseobshego blagosostoyaniya	Umumi farovonlik davlati	Fuqarolarni imtiyozlar va nafaqalarning keng to'plami bilan ta'minlay oladigan siyosiy tizim
Adial type	Idealniy tip	Ideal tip	Amalda mavjud bo'lмаган, ammo asosiy manzarasi tasvirlanadigan sotsial obyekt qurilmasi (konstruksiyasi). Xususan, Maks Veber byurokratik tashkilotning ideal tipini yaratgan edi

Function	Funksiya	Funksiya	Faoliyat, ba'zi sistemalar doirasidagi obyektning unga mansubligi va roli; obyektlar o'rtaqidagi aloqalar ko'rinishi bo'lib birining o'zgarishi ikkinchisining ham o'zgarishiga olib keladi, bunda ikkinchi obyekt dastlabkisining funksiyasi deyiladi
Macrosociology	Makrosotsiologiya	Makrosotsiologiya	Katta miqyosdagi guruhlar, tashkilotlar yoki ijtimoiy tizimlarni tadqiq etish
Microsociology	Mikrosotsiologiya	Mikrosotsiologiya	Insonning yuzma-yuz jabhadagi xulq-atvori va xatti-harakatlarini tadqiq etish
Public opinion	Obshestvennoye mneniye	Jamoatchilik fikri	Jamiyat a'zolarining kundalik hayot masalalari haqidagi umumiy qarashlari
Stability	Stabilnost	Barqarorlik	jamiyatdagi tinch-totuvlik va uni mustahkamlash uchun shart-sharoitning mavjudligi; ijtimoiy qatlamlar, kuchlar va siyosiy partiylar o'rtaqidagi hamjihatlik vaziyati; davlat, jamoat tashkilotlari, fuqarolar o'rtaqidagi ijtimoiy kelishuv holating muttasil davom etishi

Social group	Sotsialnaya gruppa	Ijtimoiy guruh	Har bir a'zosi boshqalariga nisbatan taqsimlangan kutilmalar asosida ma'lum bir tarzda o'zaro xattiharakat qiluvchi individlar yig'indisi
Organization	Organizatsiya	Tashkilot	Ma'lum bir bo'y sunish va hokimiyat munosabatlari tizimiga jalg bo'lgan odamlarning katta guruhi
Social transformation	Sotsialnaya transformatsiya	Sotsial transformatsiya	Jamiyatlar yoki sotsial tizimlardagi o'zgarishlar jarayonlari
Urbanization	Urbanizatsiya	Urbanizatsiya	Kichik va katta shaharlarning rivojlanishi
Structuralism	Strukturalizm	Strukturalizm	Sotsial yoki madaniy tizimlar tuzilmalarini aniqlashga qaratilgan nazariy yondashuv
Functionalism	Funksionalizm	Funksionalizm	Sotsial voqealar ularning funksiyalariga, ya'ni ijtimoiy jarayonlarga ta'siriga ko'ra yaxshiroq izohlanishi mumkin deb hisoblovchi nazariy oqim

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ2909-sonli Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5544-sonli Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-5729-son Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri choratadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4358-sonli Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida"gi PF-5789-sonli Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha choratadbirlar to‘g‘risida"gi 797-sonli Qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 fevraldag‘i “Sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choratadbirlari to‘g‘risida"gi PF-5667-sonli Farmoni

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilmfanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

III. Maxsus adabiyotlar

20. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
21. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
22. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
23. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
24. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
25. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
26. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y. i dr. Sovremenniye obrazovatelniye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiY. — Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. — 318 s.
<http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
27. Barkov S. A., Zubkov V.I. Sotsiologiya organizatsiy. M.: YURAYT, 2018.
28. Barkov S.A. Organizatsiya i rinok: protivoborstvo ili soglasiye? M.: Izd-vo Moskovskogo universiteta, 2008.
29. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: MonografiY. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
30. **Bols N. Azbuka media. / Per. s nem. L.Ionin, A.Chernix. - M.: Yevropa, 2011. – 136 s. <http://en.bookfi.net/book/1405627>**
31. Giddens E., Satton F. Osnovniye ponyatiya v sotsiologii. – M.: Izd. dom Visshey shkoli ekonomiki, 2018.

32. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhamedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiytadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
33. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/ tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
34. Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiY. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s.
http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf
35. Yoas X., Knebel V. Sotsialnaya teoriY. 20 vvodnix leksiy. – SPb.: Aleteyya, 2015. <https://search.rsl.ru/ru/record/01007580496>
36. Istorya sotsiologii (XIX – seredina XX veka). – M.: INFRA-M, 2004. <https://search.rsl.ru/ru/record/01002465303>
37. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
- 38. Kastels M. Vlast kommunikatsii: ucheb. posobiye / M. Kastels; per. s angl. N. M. Tilevich; pod nauch. red. A. I. Chernix; Nats. issled. un-t «Visshey shkola ekonomiki». — M.: Izd. dom Visshey shkoli ekonomiki, 2016. — 564 s.**
<https://yadi.sk/d/UC0SzNIk3Mj7qk>
39. Kimelev Y.A., Polyakova N.L. Modern i protsess individualizatsii: istoricheskiye sudbi individua moderna. – M.: IITS
- 40. Kolomiyets V. P. Sotsiologiya massovoy kommunikatsii v obshchestve kommunikatsionnogo izobiliya // Sotsiologicheskiye issledovaniY. 2017. №6. S.3-14.** http://www.isras.ru/index.php?page_id=2624&jid=6721&jn=socis
- 41. Konetskaya V.P. Sotsiologiya kommunikatsii / V.P. KonetskaY. - M.: Mejdunarodniy universitet biznesa i upravleniya, 1997. – 304 s.**
42. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

43. Nazarov M.M. Massovaya kommunikatsiya i obshchestvo. Vvedeniye v teoriyu i issledovaniya / M.M. Nazarov. — M.: Librokom, 2014. — 354 s.

44. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiysi.

Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida.

https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf

45. Organizatsionnoye povedeniye/ Pod red. S.A. Barkova. – M.: YURAYT, 2015.

46. Osipova YE.V. Patriarxi sotsiologii. – M.: Institut sotsialno-politicheskix issledovaniy RAN, 2011.

<https://search.rsl.ru/ru/record/01005063843>

47. Osipova N.G. Zapadnaya sotsiologiya v XX stoletii: klyucheviye figuri, napravleniya i shkoli. – M.: Kanon+ROOI «Reabilitatsiya»,

48. Politika i upravleniye v sotsialnoy sfere/ Pod red. N.S. Grigoryevoy, N.S. Solovyeva. M.: ARGAMAK-MEDIA, 2018

49. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.

IV. Internet saytlari

48. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: www.edu.uz.

49. Bosh ilmiy-metodik markaz: www.bimm.uz

50. www.Ziyonet.Uz

51. Otkritoye obrazovaniye. <https://openedu.ru/>

52. <https://www.socio.msu.ru/>

53. <https://www.isras.ru/>

54. <https://www.isras.ru/Sociologicalmagazine.html>

**O'zbekiston milliy universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq (mintaqaviy) markazi
“SOTSILOGIYA” yo'nalişidagi mutaxassislik fanlaridan tayyorlangan
“ZAMONAVIY SOTSILOGIK NAZARIY VA
METODOLOGIYALAR” moduli bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish masofaviy kurslari uchun tayyorlangan materiallar talablarga javob berishi bo'yicha**

EKSPERT XULOSASI

“SOTSILOGIYA” yo'nalişli qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi mutaxassislik fanlaridan fanlaridan tayyorlangan “ZAMONAVIY SOTSILOGIK NAZARIY VA METODOLOGIYALAR” moduli bo'yicha test savollari, o'quv uslubiy majmua, bitiruv ishi mavzulari hamda masofaviy materiallar mazkur modul bo'yicha tasdiqlangan namunaviy dastur doirasida tayyorlangan va unga qo'yilgan talablarga javob beradi hamda BIMM internet portaliga qo'yishga tavsiya etiladi.

Tarmoq (mintaqaviy) markazi direktori

O'. Tilavov

Bo'lim boshlig'i

O'. Muxamadiyev

“Sotsiologiya” kafedrasi mudiri

K. Kalanov

Tuzuvchi:

A. Xolbekov